

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS

TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Hozirgi xitoy tilida fe’l-sinonimlar

Bajardi: “Xitoy filologiyasi” ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchi kurs talabasi Sanayeva Munisa
Asliddin-zoda _____

Ilmiy rahbar: “Xitoy filologiyasi” kafedrasi katta
o‘qituvchisi, f.f.n. Nosirova S.A. _____

TOSHKENT - 2013

MUNDARIJA:

KIRISH	4
I BOB. Sinonimiya hodisasi haqida nazariy-metodik ishlar tahlili	9
1.1. Xitoy tilshunoslarining sinonimiya hodisasi haqidagi ishlari tahlili.....	13
1.2. O‘zbek, rus va Ovro‘pa tilshunoslarining sinonimiya hodisasi haqidagi ishlari tahlili.....	23
II BOB. Xitoy tilidagi fe’l-sinonimlarning lotin alifbosi ketma-ketligidagi klassifikatsiyasi va semantik xususiyatlari.....	29
2.1. “A” - “G” alfavit ketma-ketligidagi fe’llar tasnifi	29
2.2. “H” - “Z” alfavit ketma-ketligidagi fe’llar tasnifi.....	49
XULOSA	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	64
ILOVA	

KIRISH

“Mamlakatimizda hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdirida, odamlar dunyoqarashining o‘zgarishida, buyuk davlat barpo etishdek oliyjanob orzuimizning ro‘yobga chiqishida zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi”.¹

Karimov I.A.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, yurtimizda demokratik jamiyatga asos solina boshlandi. Bu tuzum jarayonlari mazmun va mohiyatiga ko‘ra avvalgi jarayonlardan tubdan farq qilib, ijtimoiy hayotimizning har bir sohasida o‘z aksini topmoqda. Sodir bo‘layotgan ushbu jarayonlar ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib, ularda ushbu jarayonlarni ifodalaydigan ma’no va tushunchalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ushbu o‘zaro munosabat natijalari har qaysi fanda o‘ziga xos tarzda ifodalanib bormoqda. Chunonchi, jamiyat bilan tilshunoslik o‘rtasidagi munosabat bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Mustaqilligimiz tobora mustahkamlanib, o‘zining ijobiy samaralarini bera boshlagan bugungi kunda xalqimiz oldida hayotning moddiy va ma’naviy asoslaridan kelib chiqadigan yangidan-yangi ulkan vazifalar turibdiki, ularni amalga oshirishda adabiyot va san’at, umuman ma’naviyatning ahamiyati, shubhasiz, benihoya kattadir.

Zero, davlatning kuch-quvvatini, istiqboli porloq bo‘lishini, jahon taraqqiyotida tutgan o‘rni va mavqeini odamlarning intellektual salohiyati, aqliy jihatdan yetuk va barkamolligi belgilaydi. Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov tomonidan ta’kidlanishicha, “Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: Xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari. - T., Sharq, 1997. - 142 b.

qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat — ma'rifatli insonning ikki qanotidir”.² Xalq va millatning ma'naviy, ruhiy va axloqiy qadriyatlarini shakllantiruvchi hamda ta'minlovchi asoslardan biri esa badiiy adabiyotdir. Millat ma'naviyatini bir-biri bilan uzviy aloqadorligi va aks ta'sir jarayonlari uzoq tarixiy an'anaga ega. Boshqa xalqlar bilan do'stona munosabat qilish va ilg'or tomonlarini o'rganish o'zbek xalqi ma'naviyatiga xos bo'lgan xususiyatdir.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotiga va boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishi O'zbekistonga o'zining tashqi siyosatini mustaqil ravishda yuritish, jahon hamjamiyatiga a'zo bo'lishining o'z strategiyasini ishlab chiqish, davlatlararo munosabatlarning yo'nalishlari va ustuvorligini belgilash imkonini berdi. Mamlakatimizning Xitoy Xalq Respublikasi bilan 1992 yilning 2 yanvaridan bugungi kungacha hamkorlik munosabatlari samarali rivojlanib kelmoqda. Ushbu do'stona munosabatlar tufayli savdo va iqtisodiy sohalarda bitimlar imzolandi. Zarur resurslarni, xalq iste'moli mollarini yetkazib berishdan tortib, mehmonxonalar qurish, sog'liqni saqlash, dori-darmonlar ishlab chiqarish, noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanish sohasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik qilishgacha keng ko'lamdagi siyosiy, diplomatik va madaniyat sohalarida ham jiddiy o'zaro manfaatlarning mavjudligi, shu munosabatlarni chuqurlashtirishga ko'maklashmoqda. Hozirgi kunda ana shu omillar xitoy tilini O'zbekiston hududida keng ko'lamda o'rganilishni taqozo qilmoqda.

Boshqa chet tillari kabi xitoy tilini yanada chuqur o'rganishda leksikoloya sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'rganilayotgan tilning leksikasidagi o'zgarishlar va yangiliklarni tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish o'quvchining bilim saviyasini yanada oshiradi. Shu sababli bizning bitiruv malakaviy ishimiz aynan leksikologiya sohasiga, ya'ni fe'l-sinonimlarning leksik-semantik tahliliga bag'ishlangan.

² Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. — T., O'zbekiston, 1996. - 34 b.

Sinonimlarning fikrni aniq va maqsadga muvofiq qilib ifodalashda ahamiyati kattadir. Shuning uchun ham yozuvchilar, shoirlar, olimlar tildagi omonim, sinonim soʻzlardan mohirlik bilan foydalanishib, mazmunan boy, til jihatdan rang-barang badiiy, ilmiy asarlar yaratadilar. Ammo sinonimlarni toʻgʻri qoʻllash insondan yetarlicha bilim va koʻnikmalarni talab qiladi. Chunki sinonimlar qatoridagi har bir soʻz oʻz maʼno nozikligiga ega boʻlib, ular har doim ham bir-birining oʻrniga ishlatilavermaydi. Xitoy tilidagi sinonimlar haqida hozirgi kunga qadar juda koʻplab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Ammo aynan bir kategoriyaga mansub sinonimlar tahlilini deyarli uchratmaymiz. Shu sababdan, xitoy tilida asosiy soʻz turkumlaridan biri boʻlgan feʼl kategoriyasiga mansub sinonimlarni tahlil leksik va semantik jihatdan tahlil qilishni lozim topdik. Bu xitoy tilini xorijiy til sifatida oʻrganuvchilarga katta yordam beradi degan umiddamiz.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi. Feʼl-sinonimlar tahliliga bagʻishlangan ilmiy ishlar talaygina. Jumladan, A.A.Аминовaning “Глагольные синонимы русского языка”, M.A.Костровaning “Глагольная синонимия в современном японском языке”, H.A.Пузановaning “Проблемы глагольной синонимии в когнитивном аспекте (в диахронии)” kabilarni sanab oʻtish kifoya. Lekin xitoy tilida feʼl-sinonimlarning leksik-semantik tahliliga bagʻishlangan ilmiy ishlar yoʻq. Xitoy tilshunoslari orasida ham aynan feʼl kategoriyasiga mansub sinonimlar haqida qilingan ishlarni deyarli uchratmaymiz. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, sinonimlar haqida qilingan umumiy ilmiy ishlar orasida feʼl-sinonimlarga ham toʻxtalib oʻtilgan baʼzi bir tadqiqotlarni koʻrib chiqishimiz mumkin. Ulardan Grace Qiao-zhangning “Using chinese synonyms” (“Koʻp qoʻllaniladigan xitoy sinonimlari”) lugʻati, 王波 (Wang Bo)ning “汉语近义词辨析及对外汉语教学启示” (“Xitoy tili sinonimlari tahlili va xitoy tilini oʻquvchilar uchun koʻrsatma”) maqolasi kabilar muhim ahamiyatga egadir.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi ustida izlanish olib borish jarayonida, asosan, 牟淑媛 (Mo Shu-yuan) va

王硕 (Wang Shuo)larning “汉语近义词学习手册” (“Xitoy tili sinonimlari o‘quv qo‘llanmasi”) kitobi, Grace Qiao-zhangning “Using chinese synonyms” (“Ko‘p qo‘llaniladigan xitoy sinonimlari”) lug‘ati, 周玉琨 (Zhou Yu-kun)ning “现代汉语近义词研究述评” (“Hozirgi zamon xitoy tili sinonimlarini o‘rganish”) maqolasidan foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot metodlari. Oldinga qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun to‘plangan materiallar hozirgi zamon tilshunoslik fanida keng qo‘llanilayotgan struktural, tavsifiy, tahliliy, miqdoriy, chog‘ishtirish, tarjima metodlari yordamida tahlil etildi.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi.

- Sinonimlar bo‘yicha qilingan ishlar atroflicha o‘rganib chiqildi
- Xitoy tilida fe‘l-sinonimlar ilk bora leksik-semantik jihatdan tahlil qilindi, bunda har bir sinonimik qatordagi har bir fe‘l alohida tahlil qilinib, misollar bilan izohlandi
- Mazkur ish natijasida “Xitoy tili fe‘l-sinonimlari mini-lug‘ati” tuzish rejalashtirilgan

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi hozirgi zamon xitoy tilida fe‘l-sinonimlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- Sinonimlar o‘rganish bo‘yicha qilingan ishlarni xitoy, rus, o‘zbek va Yevropa tilshunoslarining ilmiy-tadqiqot ishlari misolida ko‘rib chiqish
- Xitoy tilidagi sinonimlarni 牟淑媛 (Mo Shu-yuan) va 王硕 (Wang Shuo)larning “汉语近义词学习手册” (“Xitoy tili sinonimlari o‘quv qo‘llanmasi”) kitobi asosida ko‘rib chiqish
- Fe‘l-sinonimlarni ajratib chiqish, ularni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish

- Har bir fe'l-sinonim so'zga bir va undan ortiq misollar keltirib izohlash.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti: Xitoy tilidagi fe'l-sinonimlar

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Xitoy tilidagi fe'l-sinonimlarining leksik-semantik tahlili, ularning alifbo tartibidagi klassifikatsiyasi va semantik xususiyatlari

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining aprobatsiyadan o'tishi. Mavzu doirasida "Xitoyshunos talabalar ilmiy to'plami"ning "Obod turmush yili"ga 2013 yildagi nashrida "Xitoy tilida sinonimiya hodisasi. 同义词, 等义词 va 近义词 larning farqi" nomli maqola nashr etildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi: Malakaviy ishimizning umumiy hajmi __sahifa. Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar soni __ta. Ushbu ish kirish qismi, asosiy boblar (2ta), xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat.

Kirishda malakaviy ish mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, ishning yangiligi, manbalari, tadqiq etish usullari, obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari ochib berilgan.

Birinchi bob "Sinonimiya hodisasi haqida nazariy-metodik ishlar tahlili" deb nomlanadi. Ushbu bob ikki bo'limdan iborat bo'lib, 1.1 bo'limda xitoy tilshunoslarining sinonimiya hodisasi haqidagi ishlari tahlili, 2.2 bo'limda o'zbek, rus va Ovro'pa tilshunoslarining sinonimiya hodisasi haqidagi ishlari tahlili haqida so'z yuritiladi.

Ikkinchi bob xitoy tilidagi fe'l-sinonimlarning lotin alifbosi ketma-ketligidagi klassifikatsiyasi va semantik xususiyatlariga bag'ishlangan. Ushbu bob ham ikki bo'limdan iborat bo'lib, 1.1. bo'limda "A" - "G" alifbo ketma-ketligidagi fe'llar tasnifi va 2.2. bo'limda "H" - "Z" alifbo ketma-ketligidagi fe'llar tasnifi haqida so'z yuritiladi.

Xulosada tadqiq etilgan materiallar tahlilidan kelib chiqadigan asosiy natijalar, nazariy va amaliy umumlashmalar bayon etiladi.

I BOB. SINONIMIYA HODISASI HAQIDA

NAZARIY-METODIK ISHLAR TAHLILI

Tildagi sinonimiya hodisasi umumiy tilshunoslikning semantika, ya'ni soʻzning maʼnosiga oid masalalardan biridir. Semantika atamasining oʻziga umumiy tilshunoslikda shunday taʼrif beriladi: “Semantika – (yunon. semantikos – belgilovchi, bildiruvchi) – soʻz, soʻzning bir qismi, soʻz birikmasining maʼno tarafidir.”³ Demak, semantika – tilshunoslikning soʻzlarning maʼnosini oʻrganuvchi maxsus boʻlimidir.

Sinonimlarga kelsak, oʻzbek tilining izohli lugʻatida sinonimlar va sinonimiya hodisasiga shunday taʼrif berilgan: “Sinonim soʻzi yunonchadan olingan boʻlib, shakl va talaffuzi turlicha, ammo maʼnosi bir-biriga juda yaqin soʻzlar, oʻzaro maʼnodosh soʻzlarga aytiladi. Sinonimiya hodisasi maʼnosi bir-biriga yaqin boʻlgan soʻzlarning shakl jihatidan turlicha boʻlishidir”.⁴

Sinonimiya (yunoncha synonymia – maʼnodosh) – turli aytilish va yozilishga ega boʻlgan til birliklari boʻlib, mazmuni butunlay yoki qisman toʻgʻri kelishi hodisasidir. Leksik sinonimlar – har xil aytilish va yozilishga ega boʻlgan nutqning bir boʻlak soʻzidir, lekin bir-biriga yaqin yoki mazmuni bir-biriga toʻgʻri keladigan soʻzlardir. Sinonimlar muammosi – muhim leksikologik muammolardan biridir. XVIII asr oxiridayoq tilda bir tushunchani bildiradigan bir qancha soʻzlar boʻlishi mumkinligi haqidagi masala muhokama etilgan. XIX asr birinchi yarmida filologlar “maʼnodosh”, yaʼni mazmun jihatidan bir-biriga toʻgʻri keladigan soʻzlar tilda boʻlishi mumkin emas, deb oʻylashgan va sinonimlarni “oʻxshash belgili”, “mazmuni boʻyicha oʻxshash” soʻzlar sifatida belgilaganlar, soʻzning maʼlum bir uslubi (“boʻgʻini”) ga kiruvchi ekspressiv xususiyatini eʼtiborga olganlar. XX asr

³ Словарь иностранных слов. – Москва, Русский язык, 1980. – с. 458

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Москва, “Рус тили” нашриёти, 1981. - 52 б.

birinchi yarmida G.O.Vinokur jonli nutqda “ot yoki yilqi, bola yoki farzand deyilishini farqi bo‘lmagan holatni topib bo‘lmaydi”⁵ degan.

Ma’lumki, sinonimiya xitoy tili leksikologiyasi nazariy kursining muhim qismi bo‘lib, uni o‘zlashtirish tilni o‘rganuvchilardan ham umumiy tilshunoslikning nazariy muammolarini tushunish, ham xitoy tili leksikasini yaxshi bilishni talab etadi.

Umumiy tilshunoslikda sinonimiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlarini ko‘rib chiqar ekanmiz, dunyo olimlari sinonimiya hodisasini ko‘proq rus, ingliz, fransuz va nemis tillari misolida ko‘rib chiqishganligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Sinonimiya hodisasi dunyoning barcha tillarida keng yoyilgan bir hodisa bo‘lganligi bois, bu hodisa muhokama qilinib va chuqur ilmiy tahlillar olib borilgan asarlar talaygina. Lekin shunga qaramay, uzoq yillar dunyo miqyosida olib borilgan yuzlab tadqiqotlar masalaga oxirgi nuqtani qo‘ymagan.

Shunday qilib, sinonimlar o‘xshash mazmunli emas, balki bir-biriga yaqin so‘z sifatida tushunilgan, shu bilan birga sinonimlarning aynan o‘zaro farqi tilda ular hayotining tayanchi sifatida tan olingan. Ba’zi zamonaviy leksikologlar, aksincha, sinonim so‘zlarga faqat o‘z mazmuniga ko‘ra o‘xshash va stilistik tavsiflari farqlanadigan (har doim emas) so‘zlarni kiritish taklifi bilan chiqdilar. Sinonim so‘zlarning mazmuni yoki butunlay bir-biriga to‘g‘ri keladi, yo katta umumiy qismga (bunda sinonim so‘zlarning “mazmun yaqinligi” ko‘zda tutiladi) ega. Sinonimlarni aniqlashda ma’no-mazmun mezonlari odatda, mazmun uyg‘unligi tahlili bilan to‘ldiriladi: qator matnlarda sinonimlar o‘rtasidagi mazmun farqi xiralashadi, bilinar-bilinmas holatga keladi va bunday matnlarda (ularni “neytral qiluvchi” deb ataydilar) so‘zni aytilgan umumiy ma’nosini o‘zgartirmasdan o‘zaro almashtirish mumkin: *Bola qumda kurak bilan chuqurcha kavladi (qazidi)*.⁶ Biroq, odatda, barcha matnlarda ham bunday almashtirish mumkin emas: *Yumronqozioq shudgorda yer qazidi (kovladi emas)*. Bu narsa

⁵ Винокур Г. О. Проблема культуры речи. Русский язык в советской школе. - М.: 1929. № 5. - с. 85

⁶ Ona tili. 10-11-sinf. Darslik. – T., O‘qituvchi, 1997 y. - 23 b.

ko‘pincha so‘z ma’nolari o‘rtasidagi farqlar bilan bog‘liqdir. Masalan, *qazimoq* – bu “*asbob yordamida qazimoq*” bo‘lgani sababli kavlamok so‘zini emas, balki hayvonlar uchun faqat qazimoq so‘zini qo‘llash mumkin. O‘zaro o‘zgartirish mezonini faqat mazmun mezonini to‘ldiradi va o‘z-o‘zidan sinonimni aniqlashda yetarli hisoblanmaydi. Qator matnlarda o‘zaro o‘zgartirilgan so‘zlar borki, ular sinonim bo‘la olmaydilar. Masalan, zot-tur munosabatlarini bildiruvchi (*daraxt – sarv, it – tozi, qush – chumchuq*), bir butunlik va qisman bildiruvchi so‘zlar (*yo‘lak – uy, soch – bosh*) sinonim bo‘la olmaydilar. Chunonchi, sinonimlarni tavsiflaganda ularning uyg‘unligini e‘tiborga olish kerak bo‘lib, ular bir-biriga butunlay (*qandaydir bir narsani otmoq – irg‘itmoq*), yoki qisman (*uzoq nigoh, suhbat, davr, tanaffus; davomiy suhbat, davr, tanaffus*) to‘g‘ri kelishi mumkin. O‘zaro farqli xarakterdan kelib chiqadigan sinonimlarning asosiy uch turini ajratish mumkin:

1. Semantik, ya’ni tushunchaga ega (semantika – ma’no so‘zini anglatib, yunoncha *semantikos* – “bildiruvchi”) sinonimlar leksik ma’nodagi komponentlarni farqlaydi. Masalan, *qazimoq* – kavlamok (*qazimoq* – *asbob yordamida kavlamok*); katta – yirik (*yirik* – juda katta).

2. Bir narsani bildiradigan stilistik sinonimlar, mazmunan o‘xshash, lekin stilistik jihatdan farqlidir. Neytral so‘zlar o‘zidan yuqori yoki pasaytirilgan sinonimlarga ega bo‘lishi mumkin. (*boqmoq – qaramok – termilmoq, qo‘l – changal – panja*).

3. Semantik-stilistik sinonimlar bir vaqtning o‘zida ham mazmun, ham stilistik jihatdan farqlanadi. Masalan, *ko‘tarmoq – ko‘tarib bormok*, (*ko‘tarib bormok* – biron og‘ir narsani qiynalib ko‘tarib bormok, bunda ko‘tarib bormok so‘zi stilistik jihatdan pasaytirilgan).⁷

⁷ Abdurahmonov G., Rustamov H. Ona tili. 10-11 sinflar uchun darslik. – T., O‘qituvchi, 1997. - 101-105 b.

Mazkur bob doirasida biz sinonimlar muammosini xitoy, o‘zbek, rus va Yevropa tilshunoslarining ilmiy tadqiqotlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilishga harakat qildik. Bunda asosiy e’tiborni fe’l sinonimlar tahliliga qaratdik.

1.1. XITOIY TILSHUNOSLARINING SINONIMIYA HODISASI HAQIDAGI ISHLARI TAHLILI

Xitoy tilshunosligida ma'nosi bir-biriga yaqin, lekin turlicha talaffuz qilinadigan so'zlar sinonimlar deb ataladi. Bunda juda ko'p jihatlar e'tiborga olinadi.

“Hozirgi zamon xitoy tili” kitobi mualliflari jamoasi: “Sinonim so'zlar faqatgina turli xil talaffuz va ohangga ega bo'lgan so'zlardir” – deydilar. Lekin, ko'p hollarda xatoliklarga ham yo'l qo'yilishi ta'kidlanadi. Umumiy tilshunoslikda “sinonim” tushunchasiga ta'rif berishda turli nuqtai nazarlar mavjud. Shunday nuqtai nazarlardan bizga yaxshi tanish bo'lganlari ikki-uchta. Birinchisiga ko'ra, sinonim so'zlar – bu bir xil ma'noga ega, lekin shakli turli xil bo'lgan so'zlardir. Bu fikrni ko'pchilik olimlar qo'llab-quvvatlaydilar.

Ikkinchisiga ko'ra, sinonim so'zlar – bu talaffuzi turlicha, ma'nosi esa bir xil emas, juda yaqin bo'lgan so'zlardir. Bunday nuqtai nazarni esa ko'pchilik mashhur tilshunoslar himoya qiladilar.

Bu ikki xil nuqtai nazardan ikkinchisiga qo'shilgan holda, uni to'g'ri deb hisoblab, sinonimlarga o'z ta'rifimizni berishga harakat qilamiz: “Bir so'z turkumiga oid bo'lgan, turli shaklda yozilib, lekin ma'no jihatdan bir-biriga yaqin, ba'zan esa juda yaqin bo'lgan so'zlarga sinonim deyiladi”.

Xitoy tilida 同义词 [tóngyìcí] “sinonim”, 等义词 [děngyìcí] “bir-biriga aynan o'xshash so'zlar”, 近义词 [jìnyìcí] “yaqin ma'noli so'zlar” tushunchalari mavjud bo'lib, ularning uchasi ham sinonimlarni ifodalaydi. 同义词 [tóngyìcí] tushunchasi nisbatan umumiyroq tushuncha hisoblanadi, mazkur so'z tadqiqotchining nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, 等义词 [děngyìcí] va 近义词 [jìnyìcí] tushunchalarini o'z ichiga olishi ham, olmasligi ham mumkin.

Xitoy tilidagi aynan 等义词 [děngyìcí] tushunchasiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tushunchani o'zbek tiliga "bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar" deb tarjima qilish mumkin. Bu tushunchaning kelib chiqish bilan bog'liq savollar, shuningdek, 等义词 [děngyìcí] va 同义词 [tóngyìcí] tushunchalarining sinonim yoki sinonim emasligi va ular o'rtasida bog'liqlik bor-yo'qligi haqidagi savollar tadqiqotchilar o'rtasida bir qator bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Xitoy tilidagi adabiy yodgorliklardan birida aytilishicha, yaqin ma'noli so'zlar – bu ma'no jihatdan va ushbu ma'no hajmi jihatdan farqlarga ega bo'lmagan so'zlardir. Shu bilan bir vaqtda mazkur so'zlarni mutlaq sinonim sifatida e'tirof etish uchun ham hech qanday dalillar mavjud emas.

Bundan tashqari, 等义词 [děngyìcí]lar 同义词 [tóngyìcí] tushunchasiga mansub so'zlardir degan fikr ham mavjud. Mazkur nuqtai nazar sinonimlarni yaqin ma'noli so'zlar sifatida e'tirof etish natijasida vujudga kelgan. Shu bilan bir vaqtda, xitoy tilidagi sinonimlarning aniqlanishiga bag'ishlangan ko'pgina ishlarda so'zlar semantik xususiyatlarga ko'ra farqlanishi mumkin.

Xitoyda sinonimlarning o'rganilishiga zamonaviy yondashuv XX asrning o'rtalaridan boshlandi. Yuqorida ta'kidlanganidek, sinonimlarga yaqin (bir xil) ma'noli so'zlarni kiritish mumkin. Mazkur fikrni ko'pchilik tadqiqotchilar ma'qullashar ekan, ular sinonimik munosabatlarining asosi deb so'zlar o'rtasidagi ma'noviy o'xshashlikni e'tirof etadilar. 刘叔新(Liu Shu-xin) o'zining “同义词语和反义词语” (“Sinonimlar va yaqin ma'noli so'zlar tavsifi”) deb nomlangan ishida quyidagi sinonimlarni tahlil qilar ekan: 拉 [lā] - tashimoq, tashib yurmoq; 背 [bēi] - olib bormoq, eltmoq; 牵 [qiān] - eltmoq, olib bormoq; 抻 [chēn] - sudramoq; 扯 [chě] - sudramoq; 抽 [chōu] - sudramoq, tashimoq; 拔 [bá] - tortib ketmoq; mazkur sinonimik qatordagi so'zlardagi so'zlardan umumiy ma'noni ajratib ko'rsatish mumkinligini aytib o'tadi.⁸

⁸刘叔新 “同义词语和反义词语”, 二人合著, 商务印书馆, 1992, 68 页

Bu fikrga qarama-qarshi nuqtai nazar ham vujudga keldiki, unga asos qilib sinonimlarning ikki mutlaq bir xil ma'noga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zlar ekanligi haqidagi nazariya olingandi. Mazkur nuqtai nazar "ma'no jihatdan yaqin so'zlar tushunchasi" - 同义说 [tóngyìshuō] nomini olgan. Mazkur nazariya katta rivojlanishga ega bo'lmadi, chunki ko'pchilik tilshunoslarning fikricha bu nazariyada nazarda tutilgan sinonimlar soni chegaralangandir. O'zbek tilshunosligida mazkur tushuncha "mutlaq sinonimlar" deb nom olgan. Mutlaq sinonimlarning asosiy xususiyati ularning chegaralangan ma'noviy bir xillikka egaligidir, bu esa so'zlar ma'nolarining aynan o'xshash ekanligini anglatadi.

Ma'no jihatdan mutlaq mos tushuvchi so'zlar nazariyasini yaqin ma'noli so'zlar nazariyasi bilan bir qatorga qo'yish mumkin, mazkur nazariya muayyan xususiyatlar bilan farqlanuvchi "yaqin ma'noli so'zlar tushunchasi" - 近义说 [jìnyìshuō] nazariyasi deb ataladi.

Xitoy tadqiqotchilari o'rtasida yana shunday fikr mavjudki, unga ko'ra ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar 近义词 [jìnyìcí] deb ataluvchi alohida guruhga mansubdir. Mazkur nuqtai nazarga ko'ra yaqin ma'noli so'zlarni sinonim deb hisoblab bo'lmaydi, chunki bu so'zlar ma'no chegarasi, ta'sirchanlik darajasi, tushuncha yoki hodisaning baholashi, turli uslublarda qo'llanilishi jihatidan turlicha bo'lishi mumkin.

Xitoy tilshunoslari tomonidan mazkur nuqtai nazar yetarlicha o'rganilgan, shunga qaramay so'zlarning ma'nosini noto'g'ri aniqlanishi yuzasidan va bir qator boshqa munozarali masalalar mavjud. Mazkur nazariyaning o'rganilishini qiyinlashtiruvchi omil bo'lib muayyan ma'no va kontekst bo'yicha mos tushuvchi so'zlarning juda ko'pligi xizmat qiladi.

Hozirgi zamon xitoy tilida sinonimlarni ilmiy o'rganish borasida xitoy tilshunosligida ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan, 周玉琨 (Zhou Yukun)ning "现代汉语近义词研究述评" ("Hozirgi zamon xitoy tili sinonimlarini

o‘rganish”) maqolasida 近义词⁹ va 同义词¹⁰ tushunchalariga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan. Unda aytilishicha, xitoy tilida jinyici va tongyici tushunchalari aralashtirib yuboriladi, bu esa “tongyicilar bu – ma’nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlardir” degan nazariyadan kelib chiqqan.¹¹

Jinyici tushunchasiga alohida va nisbatan ertaroq e’tibor qaratgan tilshunos sifatida 孙常叙 (Sun Chang-xu) e’tirof etiladi, u “汉语词汇” (“Xitoy tili leksikasi”) kitobida jinyici va tongyicilar bir-biriga umuman o‘xshamasligi va alohida tadqiqot talab etishini aytib o‘tadi.¹²

Shunga qaramay, bir qator tilshunoslarning nuqtai nazari yuqoridagi fikrlardan anchayin farq qiladi. Jumladan, 张静 (Zhang Jing) leksika fanidan ma’ruzalaridan birida tongyicilarning uch turini ajratib ko’rsatadi: 等义同义词 [děngyì tóngyìcí] – teng ma’noli tongyicilar, 交叉同义词 [jiāochā tóngyìcí] – parallel tongyicilar va 近义同义词 [jìnyì tóngyìcí]. Ko‘rinib turibdiki, uning fikriga ko‘ra jinyici tongyicining bir turidir.¹³

孙良明 (Sun Liang-ming) esa o‘zining “同义词的性质和范围” (“Tongyicilarning xususiyatlari va qo‘llanilish doirasi”) maqolasida quyidagi nazariyani qo‘llab-quvvatlagan: “...ba’zi tilshunoslar tongyicilar faqat o‘xshash ma’noli so‘zlar bilan chegaralanib, bir-birining o‘rnida ishlatila olinadigan yoki bir tomonlama almashtirilib bo‘ladigan so‘zlardir, agar ularning ma’nosida farq bo‘lsa bu – jinyicilardir”.¹⁴

邹玉华 (Zou Yu-hua)ning “现代汉语词汇学” (“Hozirgi zamon xitoy tili leksikologiyasi”) o‘quv dasturi semantika bo‘limida 同义词 [tóngyìcí] tushunchasiga atroflicha izoh berib o‘tgan. Unda aytilishicha sinonimlarning

⁹ Keyinchalik “jinyici” deb yuritiladi

¹⁰ Keyinchalik “tongyici” deb yuritiladi

¹¹ 周玉琨 “代汉语近义词研究述评”, 通化师范学院中文系, 吉林通化, 2012 年

¹² 孙常叙 “汉语词汇”, 吉林人民出版社, 1996 年, 88 页

¹³ 张静 “词汇教学讲话”, 武汉: 湖北人民出版社, 1997 年

¹⁴ 孙良明 “同义词的性质和范围”, 语文学习, 1998 年, 3 页

ahamiyati asosan quyidagilardan iborat: 1) Tushunchani aniq va lo‘nda ifodalash; 2) Til uslubini aniqlashtirish; 3) Gapning jonli va boy bo‘lishini ta‘minlash.¹⁵

王力 (Wang Li)ning “王力文集” 20 jildli asarlar to‘plamining 3 jildida sinonimlarga bag‘ishlangan bo‘lim bo‘lib, unda sinonimlar 同义词 [tóngyìcí] atamasi bilan yuritilgan. Mazkur bo‘limda jami 20 ta sinonimik qator keltirilgan bo‘lib, ulardan 5 tasi fe‘l-sinonimlardan iboratdir. 叫做 [jiàozuò] - 叫 [jiào] *atalmoq, nomlanmoq*; 读 [dú] - 念 [niàn] *o‘qimoq*; 放 [fàng] - 搁 [gē] *qo‘ymoq*; 挑 [tiāo] - 担 [dàn] 说 [shuō] - 讲 [jiǎng] *aytmoq, gapirmoq* fe‘llari keltirilgan bo‘lib va ular uch turga ajratilgan:¹⁶ ma’nosi to‘liq mos tushadigan sinonimlar (mutlaq sinonimlar), ma’nosi bir xil, o‘z qo‘llanish doirasiga ega bo‘lgan sinonimlar va ma’nosi to‘liq mos tushmaydigan sinonimlar.

Fikrimizcha, sinonim tilning eng qiziq bo‘limi bo‘lib, har bir sinonim so‘zlarning umumiy o‘xshashligi bo‘lishi bilan bir qatorda ularning farqli tomonlarini ham uchratish mumkin. Bu esa har tilning o‘ziga xosligidan va shu tilda so‘zlashuvchi xalqlarning urf-odatlaridan kelib chiqadi. Misol uchun, xitoy tilida bir so‘z ham fe‘l bo‘lib kelishi mumkin, ham ot bo‘lib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda ba’zi sinonimlar matndan kelib chiqqan holda, bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan ma’nolarni ifodalashi mumkin. 王波 (Wang Bo)ning “汉语近义词辨析及对外汉语教学启示” (“Xitoy tili sinonimlari tahlili va xitoy tilini o‘quvchilar uchun ko‘rsatma”) maqolasida 学习 [xuéxí] - 学 [xué] *o‘qimoq*; 考试 [kǎoshì] - 考 [kǎo] *imtihon topshirmoq*; 帮助 [bāngzhù] - 帮忙 [bāngmáng] - 帮 [bāng] *yordam bermoq* fe‘llari misolida xitoy tilidagi sinonimlarni tahlil qilgan. Muallifning yozishicha xitoy tilida sinonimlarning ko‘p miqdorda bo‘lishi va ularning tarjimada turli xil izohlarsiz bir xil berilishi xitoy tilini o‘rganuvchilar uchun muayyan qiyinchiliklarni tug‘diradi. Misol uchun, “现代汉语教程读写课本” (“Hozirgi zamon xitoy tili o‘qitish dasturi: o‘qish kitobi”) darsligining birinchi

¹⁵ 邹玉华 “现代汉语词汇学”，汉语言文学专业课程教学大纲，2001. 668 页

¹⁶ 王波 “王力文集”，第三卷，山东教育出版社出版，1995，539 页

qismida 帮助 [bāngzhù] fe'li ingliz tiliga “to aid, to help” (yordam bermoq) tarzida tarjima qilingan. 帮 [bāng] so'zining ma'nosi ham “to aid, to help” (yordam bermoq) kabi ifodalangan. Bu kabi holatlarda o'qituvchi mazkur so'zlarning ma'noviy farqlarini izohlab bermasa, talabalar ularni mutlaq sinonim sifatida qabul qilishi mumkin va ularni qo'llashda bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yishi ehtimoldan holi emas. Bevosita 帮助 [bāngzhù] - 帮忙 [bāngmáng] - 帮 [bāng] fe'llarini tahlil qilar ekan, muallif mazkur so'zlarning har birining xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Uchala fe'l grammatik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi: 帮助 [bāngzhù] so'zi ham fe'l, ham ot kategoriyasiga mansub bo'lishi mumkin. Ammo 帮忙 [bāngmáng], 帮 [bāng] esa faqat fe'l kategoriyasiga mansubdir. Mazkur uch fe'l, shuningdek, qo'llanilish doirasi jihatdan ham farq qiladi. 帮 [bāng] ko'pincha aniq moddiy yordamni ifodalaydi, gapda odatda aniq ish-harakatning bajarilishini bildiradi. 帮助 [bāngzhù] aniq bo'lmagan moddiy, ma'naviy yordam yoki qo'llab-quvvatlashni anglatadi, asosan umumiy ma'nodagi yordamni anglatadi. 帮忙 [bāngmáng] esa faqatgina kimdir sizning yordamingizga muhtoj bo'lgan paytda, unga muayyan ishni qilishda yordamlashganingizni anglatadi. Masalan:

我们应该帮助他渡过难关。[Wǒmen yīnggāi bāngzhù tā dùguò nánguān.] - Biz unga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordamlashishimiz kerak.

麦克，快来帮忙！我的行李太重了。[Màikè, kuài lái bāngmáng! Wǒ de xínglǐ tài zhòngle.] – Maykl, tezroq yordam ber! Mening yuklarim juda og'ir.

你有什么是需要我帮忙的吗？[Nǐ yǒu shé me shì xūyào wǒ bāngmáng de ma?] – Men yordam berishim kerak bo'lgan biror yumushing bormi?

我去帮你取药吧。[Wǒ qù bāng nǐ qǔ yào ba.] – Borib sen uchun dori olib kelaman.

Bundan tashqari, 帮助 [bāngzhù], 帮忙 [bāngmáng], 帮 [bāng] fe'llari uslubiy jihatdan ham farqlarga ega. 帮助 [bāngzhù] yozma va og'zaki nutqda

ishlatiladi. 帮忙 [bāngmáng] va 帮 [bāng]da esa og‘zaki nutq ohangi kuchliroq bo‘lib, ko‘pincha so‘zlashuv uslubida qo‘llaniladi.

Ba‘zan bo‘g‘in sonining moslashuvi ham 帮助 [bāngzhù] va 帮 [bāng]ning qo‘llanilishini belgilab beradi. Masalan:

你们要互相帮助。你们要互相帮。[Nǐmen yào hùxiāng bāngzhù. Nǐmen yào hùxiāng bāng.] – Sizlar bir-biringizga yordam berishingiz kerak. Mazkur gapda 互相 so‘zi ikki bo‘g‘inli bo‘lgani uchun undan keyin 帮助 ishlatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

请你多加帮助。请你多加帮。[Qǐng nǐ duōjiā bāngzhù. Qǐng nǐ duōjiā bāng.] – Sizdan yanada ko‘proq yordam kutib qolamiz. Bu gapda esa 加 so‘zi bir bo‘g‘inli bo‘lib, 帮 bilan ko‘proq moslashadi.

帮助 [bāngzhù], 帮忙 [bāngmáng], 帮 [bāng] fe‘llari, shuningdek, boshqa so‘zlar bilan birikishda ham bir qator farqiy tomonlarga egadir. 帮助 [bāngzhù] va 帮 [bāng]dan keyin “过” [guò] va “了” [le] yordamchi so‘zlari qo‘llanilishi mumkin, 帮 [bāng], shuningdek, “着” [zhe] bilan birikadi, ammo 帮助 [bāngzhù]da bunday xususiyat yo‘q. Masalan:

他帮助过那个孩子。[Tā bāngzhùguò nàgè hái zi.] 他帮过那个孩子。[Tā bāngguò nàgè hái zi.] – U o‘sha bolaga yordam bergan.

他帮助了那位老人几十年。[Tā bāngzhùle nà wèi lǎorén jǐ shí nián.] 他帮了那位老人几十年。[Tā bāngle nà wèi lǎorén jǐ shí nián.] – U o‘sha qariyaga o‘n yil ko‘maklashdi.

我帮助着你提行李吧。[Wǒ bāngzhùzhe nǐ tí xíng lǐ ba.] – bunday ishlatilmaydi.

我帮着你提行李吧。[Wǒ bāngzhe nǐ tí xíng lǐ ba.] – Men sizga yukingizni ko‘tarishga yordam beraman. “着” [zhe] ish-harakatning davomiyligini va muayyan ish-harakat bilan uzviy aloqasini bildiradi, 帮助 [bāngzhù] esa nisbatan umumiy ma‘noni ifodalaydi.

Grace Qiao-zhangning “Using chinese synonyms” (“Ko‘p qo‘llaniladigan xitoy sinonimlari”) lug‘atida 315 sinonimik qatorda taxminan 1700 ta sinonim so‘zlar keltirilgan bo‘lib, mazkur sinonimik qatorlarning 100 tasini, ya’ni 31 foizini fe‘l-sinonimlar tashkil etadi. Mazkur lug‘atda yuqorida ko‘rib chiqilgan “*yordam bermiq*” so‘zining quyidagi sinonimlari keltirilgan: 扶持[fúchí], 协助[xiézhù], 援助[yuánzhù], 支援[zhīyuán], 帮助[bāngzhù], 支持[zhīchí], 帮[bāng], 帮忙[bāngmáng].¹⁷ Misol tariqasida “*yoqtirmiq*” fe‘lining sinonimlarini ko‘rib chiqamiz. Lug‘atda “*yoqtirmiq*” ma’noli sinonimik qator 爱[ài], 爱戴[àidài], 敬爱[jìng’ài], 热爱[rè’ài], 喜爱[xǐ’ài], 爱好[àihào], 喜欢[xǐhuan], 好[hǎo] fe‘llaridan iborat bo‘lib, bu qatordagi dominanta so‘z¹⁸ sifatida 爱[ài] – *sevmiq* fe‘li olingan.¹⁹

爱[ài] chuqur his-tuyg‘ular bilan yoqtirishni anglatadi, 喜欢[xǐhuan]ga nisbatan yoqtirish darajasi yuqoriroqdir. Masalan:

他最爱的人是他的母亲。[Tā zuì ài de rén shì tā de mǔqīn.] – Uning eng sevgan insoni – uning onasidir.

他爱说闲话，我不喜欢他。[Tā ài shuōxiánhuà, wǒ bù xǐhuan tā.] – U g‘iybat qilishni yaxshi ko‘radi, men uni yoqtirmayman.

爱戴[àidài] – *sevmiq va qadrlamoq* fe‘li odatda yuqori darajada hurmat qilinadigan insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Masalan:

学生们十分爱戴他们的老师。[Xuéshēngmen shífēn àidài tāmen de lǎoshī.] - Talabalar o‘zlarining ustozlarini juda qadrlashadi.

他是我们最爱戴的人。[Tā shì wǒmen zuì àidài de rén.] - U bizning eng sevgan insonimiz.

敬爱[jìng’ài] – fe‘li ko‘proq *hurmat qilib yoqtirmiq* ma’nosida qo‘llaniladi. Masalan:

¹⁷ Grace Qiao-zhang. Using chinese synonyms. - Cambridge University Press, 2010, - p. 11

¹⁸ Sinonimik qatordagi chiroqli so‘zi dominanta bo‘ladi. Ya’ni bu qatordagi ma’nosi betaraf bo‘lgan, ko‘p qo‘llanadigan so‘z asosiy (dominant) deb ataladi.

¹⁹ Grace Qiao-zhang. Using chinese synonyms. - Cambridge University Press, 2010, - p. 1

学生们都非常敬爱王老师。[Xuéshēngmen dōu fēicháng jìng'ài wáng lǎoshī.] – Talabalar hammasi Van ustozni juda hurmat qilishadi.

敬爱的李老师，祝你生日快乐！[Jìng'ài de lǐ lǎoshī, zhù nǐ shēngrì kuàilè!] – Hurmatli ustoz Li, tugʻilgan kuningiz muborak boʻlsin!

热爱[rè'ài] fe'li *chin yurakdan sevmok, yaxshi ko'rmok* ma'nosida ishlatiladi: 他们都热爱这个美丽的国家。[Tāmen dōu rè'ài zhège měilì de guójiā.] – Ular bu go'zal mamlakatni chin yurakdan sevishadi.

热爱大海的他，一有时间就去海里游泳。[Rè'ài dàhǎi de tā, yī yǒu shíjiān jiù qù hǎilǐ yóuyǒng.] – U dengizni o'ta sevganidan vaqt bo'lishi bilanoq dengizga suzishga ketadi.

喜爱[xǐ'ài] – *yoqtirmok* fe'li ko'proq lazzatlanmok, huzurlanmok ma'nosida qo'llaniladi. Masalan:

澳洲人特别喜爱游泳。[Àozhōu rén tèbié xǐ'ài yóuyǒng.] – Avstraliyaliklar suzishni juda yoqtiradilar.

他最喜爱的不是看电影，而是上互联网。[Tā zuì xǐ'ài de bùshì kàn diànyǐng, ér shì shàng hùliánwǎng.] – Uning eng yoqtirgani televizor ko'rishmas, balki internetga kirishdir.

爱好[àihào] – *yoqtirmok* fe'li aniq va mavhum otlarga nisbatan ishlatiladi, ammo shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi. Masalan:

他爱好运动，常常去锻炼身体。[Tā àihào yùndòng, chángcháng qù duànliàn shēntǐ.] – U sportni yaxshi ko'radi, tez-tez tanasini chiniqtirib turadi.

他和我一样爱好音乐，周末的时候我们经常一起去音乐会。[Tā hé wǒ yīyàng àihào yīnyuè, zhōumò de shíhou wǒmen jīngcháng yīqǐ qù yīnyuè huì.] – U ham menga o'xshab musiqani yoqtiradi, dam olish kunlari biz birga konsertlarga borib turamiz.

喜欢[xǐhuan] – *yaxshi ko'rmok, yoqtirmok*. Bu fe'l shaxslarga ham, predmetlarga ham ishlatiladi. Masalan:

小王喜欢小李，他们是朋友。[Xiǎo wáng xǐhuan xiǎo lǐ, tāmen shì péngyǒu.] – Xiao Wang Xiao Lini yaxshi ko‘radi, ular do‘st.

因为很喜欢看书，他就到图书馆去工作了。[Yīnwèi hěn xǐhuan kànshū, tā jiù dào túshū guǎn qù gōngzuòle.] – Kitob o‘qishni shunchalik yoqtirganidan, u kutubxonaga ishga joylashib oldi.

好[hǎo] – juda sevmok, suymok, sidqidildan yaxshi ko‘rmoq. Bu fe’ldan so‘ng ko‘pincha ot va fe’l keladi. Masalan:

那个小猫特别好动，跳来跳去的。[Nàgè xiǎomāo tèbié hǎo dòng, tiào lái tiào qù de.] – Bu mushukcha harakatlanishni juda yoqtiradi, sakragani-sakragan.

因为太好玩儿，学习不好，爸爸没少说他。[Yīnwèi tài hǎowán er, xuéxí bù hǎo, bàba méi shǎo shuō tā.] – O‘yin-kulguni yoqtirgani uchun, o‘qishlari yaxshi emas, otasi bu haqda unga ko‘p marta aytgan.

Yoqtirish darajasiga ko‘ra mazkur fe’llar quyidagicha joylashtirilgan: 喜欢 - 爱 - 喜爱 - 热爱. Umuman olganda, mazkur lug‘atda sinonimlarni to‘plashda ularning umumiy ma’nosiga e’tibor qaratilgan. Chunki yuqorida keltirilgan misollarni tahlil qiladigan bo‘lsak, bu fe’llarning aksariyatining ma’nosi bir-biriga to‘liq mos tushmaydi. Faqat bir “yoqtirmok” ma’nosiga qarab fe’llar tanlab olingan.

张志毅 (Zhang Zhi-yi) va 张庆云 (Zhang Qing-yun) hammuallifligida yozilgan “词汇语义学与词典编纂” (“Semasiologiya va leksikografiya”) asarida sinonim tushunchasi hamda ularning grammatik ma’no jihatdan farqlanishi hodisasi keltirilgan.²⁰

Xitoy tilshunosi 贺国伟 (He Guo-wei) o‘zining “现代汉语同义词词典” (“Zamonaviy xitoy tili sinonimlar lug‘ati”) kitobida sinonim so‘zlarni keltirish bilan bir qatorda, ularga oid ayrim sharhlar ham keltirgan.²¹

²⁰ 张志毅，张庆云 “词汇语义学与词典编纂”，外语教学与研究出版社，2007 年，67 页

²¹ 贺国伟 “现代汉语同义词词典”，2005 年，550 页

1.2. O‘ZBEK, RUS VA YEVIROPA TILSHUNOSLARINING SINONIMIYA HODISASI HAQIDAGI ISHLARI TAHLILI

Sinonimlar haqida, shuningdek, o‘zbek, rus va Yevropa tilshunoslari tomonidan ham salmoqli tadqiqotlar olib borilgandir. Bunda, ayniqsa, rus tilshunoslarining hissasini e‘tirof etish muhimdir. A. A. Брагинaning yozishicha: “Мы принимаем за основу синонимии близость значений, выражающих оттенки одного понятия. Так выдвигается на первый план дифференцирующая роль синонимов, выделяется не только общее в значении синонимических слов, но и еще более важные различительные признаки каждого из синонимов”²², ya’ni “Biz sinonimlar uchun asos deb bir tushunchaning turli ko‘rinishlarini ifodalovchi ma’noviy yaqinlikni hisoblaymiz. Shunday holda sinonimlarning farqlash funksiyasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ladi, sinonim so‘zlarning faqat umumiy ma’nosi emas, balki har bir sinonimik so‘zning muhim farqlovchi xususiyatlari yuzaga chiqadi.” H.M.Карамзин esa sinonimlarni tilning boyish manbai deb hisoblaydi: “Богатый язык тот, в котором вы найдете слова не только для означения главных идей, но и для изъяснения их различий...”²³, ya’ni “Qaysi tilda faqat asosiy g‘oyalarni zikr etish uchun emas, balki ularning farqlarini ham izohlab beruvchi so‘zlarni topa olsangiz, bilingki, o‘sha til boydir...”

Rus tilshunoslari ichida aynan sinonimlar haqida ilmiy tadqiqot olib borgan tilshunoslar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ulardan З.Е.Александровaning “Словарь синонимов русского языка”, А.А.Брагинaning “Синонимы в литературном языке”, А.Д.Григорьевaning “Заметки о лексической синонимии”, А.П.Евгеньевaning “Словарь синонимов русского языка”, В.И. Кодуховning “Рассказы о синонимах”, М.Ф.Палевскаяning “Проблема синонимического ряда, его границ и возможности выделения доминанты”, В.А.Сиротинaning “Лексическая синонимия русского языка”, В.А.Гречкoning “Лексическая

²² Брагина Л. А. Синонимы и их истолкование. – Вопросы языкознания. - М.; 1978, № 6, - с. 65

²³ Карамзин Н. М. О богатстве языка. — Избранные сочинения: В 2-х т., Т. 2. - М.; Л.: 1964, - с. 142

синонимика современного русского языка” kabi ilmiy tadqiqot ishlarni alohida qayd etish lozim.

Yuqorida sanab o‘tilgan ba’zi tilshunoslar va boshqa ko‘pchilik tilshunoslarning fikricha, sinonimlar shunday so‘zlarki, ular bir tushunchani (moslashuv to‘liq yoki qisman bo‘lishi mumkin) ifodalaydi, lekin turli ifoda predmetiga ega bo‘ladi. Mazkur fikrni yoqlovchi tilshunoslarga M.I.Fomina, R.A.Budagov, A.A.Bragina, A.P.Yevgenyeva, V.I.Koduxov, D.E.Rozental, N.M.Shanskiy, R.N.Popov, N.G.Goltsova, T.I.Vendina, Z.Y.Aleksandrova, L.A.Bulaxovskiy, M.F.Palevskaya, D.N.Shmelevlarni kiritish mumkin.

Shuningdek, boshqa nuqtai nazarlar ham mavjud. Jumladan, G.O.Vinokurning fikricha, sinonim ilmiy uydirma (fiktsiya) hisoblanadi, chunki sinonim tilning lug‘atida mavjud bo‘lgandagina sinonim hisoblanadi, og‘zaki nutq kontekstida esa so‘zlovchi uchun “bola” [ребенок] yoki “go‘dak” [дитя], “ot” [конь] yoki “yilqi” [лошадь] deyish baribir bo‘lgan holatlarni topish qiyindir.

A.A. Reformatskiy va A.I. Yefimovlarning fikriga ko‘ra, tilda ma’no jihatdan bir xil so‘zlar mavjud emas.²⁴ A.D. Grigoryevaning fikricha esa faqat ma’noviy aynan o‘xshashlik (ma’no yaqinligi emas) so‘zlarni sinonim sifatida qabul qilishga imkon beradi. Bunday qarashlar, o‘z navbatida, bir-birini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi, bu orqali sinonimiya hodisasi mohiyatining chuqur anglanishiga imkon yaratadi.

Y.Y. Sidelnikovanning “Hozirgi zamon xitoy tilida ravish sinonimiyasi (还 [háí] ravishi misolida)” maqolasida sinonimlarning quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi:

- Синонимы в узком смысле слова должны иметь в словаре одно и то же толкование, т. е. переводиться в одно и то же выражение семантического языка, отражать одно и то же понятие, предмет или явление.
- Должны иметь одинаковое число активных семантических валентностей.

²⁴ Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 1995. – с. 62–66

- Должны принадлежать к одной и той же (глубинной) части речи.
- Все участники одного СР должны быть синонимичны друг другу, однако это не обязывает их быть взаимозаменяемыми в речевых оборотах.²⁵
- Sinonimlar tor ma'noda, lug'atda bir xil izohlanishi lozim, ya'ni bir xil tarjima qilinishi, bir tushuncha, predmet yoki hodisani ifodalashi lozim
- Bir xil miqdordagi faol semantik valentlikka²⁶ ega bo'lishi lozim
- Bir grammatik kategoriyaga oid bo'lishi lozim
- Bir sinonimik qatordagi barcha sinonimlar o'z navbatida bir-biriga sinonim bo'lishi kerak, ammo bu ular og'zaki nutqda ham bir-birining o'rniga ishlatilishiga kafolat bermaydi.

Bevosita xitoy tili sinonimlarini haqida ham bir qator mulohazalarni rus tilshunoslarining qo'llanmalarida, darsliklarida va ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, V.I.Gorelovning "Xitoy tili leksikologiyasi" qo'llanmasida sinonimlar tongyici atamasi bilan ifodalangan va sinonimlarga bir tushunchani ifodalovchi so'zlar deya ta'rif berilgan.²⁷ Sinonimlarning tasniflashda asosan ularning ikki xususiyati – farqlovchi va differensiasiyalovchi (darajalovchi) xususiyatlariga tayaniladi. Aynan mana shu xususiyatlarga ko'ra xitoy tilidagi sinonimlar uch turga bo'linadi: mazmuniy-belgili, hissiy-uslubiy va funksional-uslubiy sinonimlar.

Mazmuniy-belgili sinonimlar turli-tuman xususiyatlarni farqlashi mumkin, jumladan, aniq yoki mavhum tushunchalar, ba'zan odamlar va hayvonlarga oid tushunchalarning xususiyatlari. Masalan: 隐藏 [yǐncán] – bekinmoq (odamlar va predmetlarga nisbatan) va 隐瞒 [yǐnmán] – bekitmoq (mavhum tushunchalarga nisbatan). Hissiy-uslubiy sinonimlarning vazifasi asosiy predmetlik ma'nosidan tashqari, so'zga subyektiv baho berish va so'zning hissiy bo'yqadorligini

²⁵ Сидельникова Е.Ю. Синонимия наречий СКЯ (на примере наречия 还), Дальневосточный федеральный университет, 2008

²⁶ Semantik valentlik – sintaksisda so'zning boshqa elementlar bilan sintaktik munosabatga kirishish qobiliyatidir (ru.wikipedia.org)

²⁷ Горелов В.И. Лексикология китайского языка. - М.: Просвещение, 1984. - с. 122

oshirishdir. Shu tariqa, ular hissiy-farqlovchi vazifani bajaradi. Masalan: 团结 [tuánjié] – birlashmoq (neytral leksikaga kiradi); 勾结 [gōujié] – topishmoq, islashib qolmoq (salbiy bo‘yoqdorlik mavjud); 勾串 [gōuchuàn] – til biriktirmoq, kelishmoq (salbiy bo‘yoqdorlik mavjud). Funksional-uslubiy sinonimlar esa qo‘shimcha ma’nolarni aniqlaydi. Bu sinonimlarning asosiy vazifasi ifodaga uslubiy bo‘yoq beradi, ular uslubiy farqlash funksiyasini bajaradi. Xitoy tili uchun putunxuaga venyandan olingan sinonim juftliklar xosdir. Quyidagi misollarda putunxuada ishlatiladigan so‘zlar venyanizmlar (qavs ichida) bilan birga juftliklar hosil qilgan: 消灭 [xiāomiè] (歼灭 [jiānmiè]) – yo‘q qilmoq; 埋葬 [máizàng] (安葬 [ānzàng]) – dafn qilmoq, ko‘mmoq.

Yana bir rus tilshunosi A.L.Semenasning “Xitoy tili leksikasi” qo‘llanmasida sinonimlarni, asosan, formal tiplarga bo‘linishi jihatidan tahlil qilingan. Xitoy tilida sinonimlar o‘zining shakl tuzilishiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi.²⁸ Ularni turlarga bo‘lishda dastlab, so‘zda nechta bo‘g‘in borligiga, undan keyin esa umumiy yoki turli xildagi elementlarning bor yo‘qligiga e‘tibor qaratish lozim.

Birinchi guruhga bir bo‘g‘inli so‘zlar vositasida ifodalangan sinonimlar kiradi. Xitoy tilida bir bo‘g‘inli sinonimlarning soni boshqa guruhlarga nisbatan olinganda unchalik ko‘p emas. Ularning ko‘pchiligi asosiy leksikaga oiddir. Masalan: 看 [kàn] – qaramoq, 见 [jiàn] – ko‘rmoq, 望 [wàng] – uzoqqa qaramoq.

Ikkinchi guruhga bir bo‘g‘inli va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar bilan ifodalangan sinonimlar kiradi. Bunday sinonimlarning o‘zi ham ikki kichik guruhga bo‘linadi.

1. Umumiy komponentga ega bo‘lmagan sinonimlar. Masalan: 吹 [chuī] – maqtanmoq (g‘ururlanmoq), 夸口 [kuākǒu] – maqtanmoq.
2. Qisman mos keluvchi komponentga ega bo‘lgan sinonimlar. Masalan: 飞 [fēi] – uchmoq, 飞翔 [fēixiáng] – qanot qoqmoq.

Ikkinchi guruh sinonimlari ko‘pincha ot

²⁸ Семенов А.Л. Лексика китайского языка.- М.: Наука, 2007. - с.145

kategoriyasiga mansub bo‘ladi, bunday holatda bir turdagi predmet (narsa)larni bildiradi, demak fe‘l kategoriyasiga kiruvchi sinonimlar bu guruhda nisbatan kamroq bo‘lar ekan.

Uchinchi guruhga ikki yoki undan ortiq bo‘g‘indan tashkil topgan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar kiradi. Ular ham uch guruhga bo‘linadi. 1. Umumiy komponentga ega bo‘lmagan, ya’ni turli komponentli sinonimlar. Bu guruhga kiruvchi sinonimlarning kichik bir qismi bir xil ma’noli so‘zlar, ya’ni mutlaq (absolyut) sinonimlardir. Masalan: 明白 [míngbái] – tushunmoq, anglab yetmoq; 清楚 [qīngchū] – tushunib yetmoq, anglab yetmoq.²⁹ 2. Bir xil komponentga ega bo‘lgan, ammo tartibi turlicha bo‘lgan sinonimlar. Odatda bunday sinonimlar tushuncha ma’nosida, uslubiy bo‘yoq va qo‘llanishda bir-biridan farq qilmaydi. Biroq til taraqqiyoti jarayonida bunday sinonimlarning bir qismi ma’no va qo‘llanishda farq qiladi. Masalan: 替代 [tìdài], 代替 [dàitì] – o‘rnini olmoq, o‘rnini bosmoq. 3. Qisman muvofiq keluvchi komponentlarga ega sinonimlar. Sinonimlar juftidagi umumiy komponent so‘zda yo boshlang‘ich, yo oxirgi pozitsiyani egallashi mumkin. Masalan: 保护 [bǎohù], 保卫 [bǎowèi] – himoya qilmoq.

Ingliz tili ham sinonimlarga boy til hisoblanib, ingliz tilshunoslarining sinonimlar to‘g‘risida olib borgan izlanishlari ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Jeyms Champlin Fernaldning “English synonyms and antonyms” (“Ingliz tili sinonimlari va antonimlari”) kitobida ingliz tili sinonimlarini atroflicha tahlil qilgan. Mazkur kitobda 7500 ta sinonim keltirilgan bo‘lib, har bir sinonim so‘zga alohida izoh va misollar berib o‘tilgan. Muallifning yozishicha, sinonimlarning bir biriga to‘liq mos tushmasligi va ularning qay jihatlari bilan farq qilishini o‘quvchilarga tushuntirish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.³⁰

Shunigdek, ingliz olimlaridan sinonimlar ustida tadqiqot olib borgan George Crabbning “English synonyms explained” (“Ingliz tili sinonimlari sharhi”), George Frederick Grahamning “English synonyms” (“Ingliz tili sinonimlari”), Richard

²⁹ 牟淑媛, 王硕 “语近义词学习手册”, 北京: 北京大学出版社, 2004, 160 页

³⁰ James C. Fernald, L.H.D. English synonyms and antonyms. – Funk and Wagnalls company, New York, 2009. – p.2

Whatelyning “English synonyms discriminated” (“Ingliz tili sinonimlarining farqlari”) kabi ishlarni misol qilib keltirish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida ham sinonimlar tahlili bo‘yicha salmoqli ishlar olib borilgan va olib borilmoqda. O‘zbek tilshunosligida alohida yozma yodgorlik tili bo‘yicha yaratilgan birinchi sinonimik lug‘at “Boburnoma”da qo‘llanilgan sinonimlar lug‘ati” hisoblanadi. Lug‘at Mirzaahmad Olimov tomonidan tuzilgan bo‘lib, lug‘at ichida sinonimik qator hosil qilgan alohida so‘zlarning lisoniy mansubiyati, grammatik shakllari, uslubiy bo‘yog‘i kabilar haqida e‘tiborga molik fikrlar bildirilgan. Bundan tashqari sinonimlar, umuman o‘zbek tili lug‘atshunosligiga katta hissa qo‘shgan tilshunoslardan f.f.n. Ergash Umarov, akademik Azim Hojiyev, f.f.n. Olim Usmon, f.f.n. Zokir Ma‘rupov, f.f.n. Abduvahob Madvaliyev kabi olimlarni keltirishimiz mumkin.

I bobga xulosa yasar ekanmiz, quyidagi natijalarga erishdik:

Sinonimlar til lug‘at boyligining muhim qismini tashkil etib, ular shakl va talaffuzi turlicha, ammo ma‘nosi bir-biriga juda yaqin so‘zlar, o‘zaro ma‘nodosh bo‘lgan so‘zlardir. Sinonimiya hodisasi ma‘nosi bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarning shakl jihatidan turlicha bo‘lishidir.

Xitoy tilida sinonimlar 同义词 [tóngyìcí], 等义词 [děngyìcí], 近义词 [jìnyìcí] tushunchalari bilan ifodalanib ular ma‘no farqlariga egadir. Xitoy tilshunoslarining ilmiy ishlarini ko‘rib chiqib 等义词 [děngyìcí] atamasi ko‘proq mutlaq sinonim ma‘nosida, 同义词 [tóngyìcí] va 近义词 [jìnyìcí] esa leksik sinonimlar ma‘nosida qo‘llanishi aniqlandi.

O‘zbek, rus, Ovro‘pa va xitoy tilshunoslarining ilmiy ishlarini tahlil etganda ularning aksariyati sinonim tushunchasiga bir xil ta’rif berganliklari aniqlandi.

II BOB. XITOIY TILIDAGI FE'L-SINONIMLARNING LOTIN ALIFBOSI KETMA-KETLIGIDAGI KLASSIFIKATSIYASI VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ikkinchi bobimizda 牟淑媛 (Mou Shuyuan) va 王硕 (Wang Shuo)larning “汉语近义词学习手册” (“Xitoy tili sinonimlari o‘quv qo‘llanmasi”) kitobidan asosiy manba sifatida foydalandik. Ushbu kitobda jami 150 ta sinonimik qatorda 300 dan ortiq sinonim so‘zlar keltirilgan bo‘lib, har bir sinonim so‘z alohida tahlil qilingan va ularning farq tushuntirib o‘tilgan. Ulardan 75 tasi, ya’ni 23 foizi fe’l kategoriyasiga mansub so‘zlar bo‘lib, quyida ularning semantik xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz.

2.1. “A” - “G” ALIFBO KETMA-KETLIGIDAGI FE'LLAR TASNIFI

拜访(bàifǎng)/访问 (fǎngwèn) – tashrif buyurmoq³¹

Ikkala fe’l ham qayergadir tashrif buyurmoq yoki kimnidir ko‘rishga bormoq va u bilan suhbatdosh bo‘lmoq ma’nolarini ifodalaydi. Bu ikki fe’lning farqli jihatlari quyidagilardir:

拜访 ko‘pincha ijtimoiy munosabatlar doirasida qo‘llaniladi va har doim hurmat-ehtirom ma’nosini ifodalaydi. Mehmonning mezbon huzuriga tashrif buyurgan holatidagi hurmatini ta’kidlab keladi. Masalan: 拜访了几位科学家 [Bàifǎngle jǐ wèi kēxuéjiā] - Bir nechta olim tashrif buyurdi. 拜访了市长先生。 [Bàifǎngle shì zhǎng xiānshēng.] - Shahar hokimi tashrif buyurdi.

访问, shuningdek, ot so‘z turkumiga ham xos bo‘lib, muayyan maqsad asosida biror joy, tashkilotga yoki ma’lum bir shaxsni ko‘rishga bormoq ma’nosini ifodalaydi, o‘zida hurmat-ehtirom ma’nolarini mujassamlashtirmaydi. Masalan: 访问工厂 [fǎngwèn gōngchǎng] - zavodga tashrif buyurmoq, 访问足球运动员

³¹牟淑媛, 王硕 “语近义词学习手册” - 北京: 北京大学出版社, 2004, 5 页

[fǎngwèn zúqiú yùndòngyuán] - futbolchilarni ko‘rgani bormoq, 去中国访问. [qù zhōngguó fǎngwèn] – Xitoyga tashrif buyurmoq.

帮忙 (bāngmáng)/帮助 (bāngzhù) – yordam bermoq³²

Ikkala fe’l ham o‘z kuchini ishlatgan holda boshqalarga ko‘maklashish ma’nosini ifodalaydi. Ularning quyidagi farqli jihatlari mavjuddir:

帮忙 ko‘pincha insonlarning maishiy hayotda yoki ishda bir-birlariga yordamlashishini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Masalan: 小李要搬家，大家都来给他帮忙。 [Xiǎo lǐ yào bānjiā, dàjiā dōu lái gěi tā bāngmáng.] – Xiaoli ko‘chmoqchi, hamma unga yordam berish uchun kelibdi.

帮助 esa nafaqat insonlarning bir-biriga yordamini, balki ma’naviy yoki moddiy yordam ma’nosini ham ifodalashi mumkin. Masalan: 帮助贫困学生 [Bāngzhù pínkùn xuéshēng] - kam ta’minlangan talabalarga yordam bermoq, 帮助学习上有困难的同学 [bāngzhù xuéxí shàng yǒu kùnnán de tóngxué] – o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan talabalarga yordam bermoq.

帮忙 fe’li 离合词 (líhé cí)³³ hisoblanib, mazkur so‘zning ikki bo‘g‘ini orasiga boshqa so‘z yoki so‘z birikmasi qo‘shilishi mumkin, 帮帮忙 [bāng bāngmáng] – yordam bering, 帮了我一个大忙 [bāngle wǒ yīgè dànmáng] - Menga juda katta yordam berd. 帮倒忙 [bāngdàománg] –Yordam berib yuboring kabi. Lekin 帮助 bunday ko‘rinishda ishlatila olmaydi.

保存 (bǎocún)/保留 (bǎoliú) – asramoq³⁴

³² 牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，7 页

³³ Xitoy tilida 离合词 *líhé cí* (离 *lí*- ajratmoq; 词 *cí*– so‘z; 合 *hé*- qo‘shmoq) ajratib hamda qo‘shib qo‘llaniladigan so‘zlarga nisbatan aytiladi. (so‘zma-soz tarjima)

³⁴ 牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，8 页

Ikkala fe'l ham asramoq, saqlamoq kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ba'zi hollarda bir-birini o'rniga ishlatila oladi. Masalan: 过去的东西，他只保存/保留了几样。[Guòqù de dōngxi, tā zhǐ bǎocún/bǎoliúle jǐ yàng.] – Eski narsalardan u faqat bir nechtasini saqlab qo'ygandi. Farq qiluvchi jihatlari esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

保存 ko'pincha narsa-predmetlarga zarar yetkizmasdan, ularning mavjud bo'lishini davom ettirish ma'nosini bildiradi. Ko'pincha aniq otlar bilan qo'llaniladi. Masalan: 他保存了不少文物 [Tā bǎocún liǎo bù shǎo wénwù] - U anchagina madaniy boylik asrab qo'ygandi. 保存力量，下午还有一场比赛呢。[Bǎo cún lìliàng, xiàwǔ hái yǒuyī chǎng bǐsài ne.] – Kuchingni asra, tushdan so'ng yana bir o'yin bor-ku.

保留 esa biror narsani o'zgartirmay aslicha saqlashni ta'kidlaydi. Bu fe'l ham aniq otlar, ham mavhum otlar bilan qo'llaniladi. Masalan: 城市的改造应该保留原貌 [Chéngshì de gǎizào yīnggāi bǎoliú yuánmào] - Shaharning qayta qurilishi uning asl ko'rinishi saqlab qolishi lozim. 这所房子作为文物保留了下来。[Zhè suǒ fáng zǐ zuòwéi wénwù bǎoliúle xiàláí.] – Bu uy madaniy yodgorlik sifatida saqlanib kelmoqda. Boshqa hollarda esa 保留 qoldirmoq, qolmoq kabi ma'nolarni ham ifodalab keladi. Masalan: 对这件事，我持保留意见。[Duì zhè jiàn shì, wǒ chí bǎoliú yìjiàn] – Bu ishga nisbatan, men o'z fikrimda qolaman.

保护 (bǎohù)/维护 (wéihù) – g'amxo'rlik qilmoq³⁵

Ikkala fe'l ham g'amxo'rlik qilmoq, ziyon yetkazmaslikka harakat qilmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Ba'zi hollarda o'zaro almashilib ishlatila oladi. Masalan: 保护/维护公民合法权益。[Bǎohù/wéihù gōngmín héfǎ quánì] – Fuqarolarning huquq va manfaatlari haqida qayg'urmoq. Boshqa hollarda esa mazkur fe'llar quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

³⁵牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，10 页

保护 ko‘pincha shaxs yoki narsa-predmetni ehtiyot qilmoq, muhofaza qilmoq kabi ma’nolarni ta’kidlab keladi, ko‘pincha aniq otlar bilan birga qo’llaniladi. 保护 shaxs yoki narsa-predmetni bildirib keluvchi ot yoki olmosh so‘z turkumiga mansub so‘zlar bilan birikma hosil qiladi. Masalan: 保护环境 [bǎohù huánjìng] - atrof-muhitni muhofaza qilmoq, 保护牙齿 [bǎohù yáchǐ] - tishlarni asramoq, 保护资源 [bǎohù zīyuán] - resurslarni asramoq, 学会自我保护 [xuéhuì zìwǒ bǎohù] - o‘zini-o‘zi himoya qilishni o‘rganmoq, 他要保护自己的孩子。[Tā yào bǎohù zìjǐ de hái’zi.] – U o‘z farzandini ehtiyot qilishi kerak.

维护 esa narsa-predmetni himoya qilmoq, ziyon yetkazmasdan saqlamoq ma’nolarini ifodalaydi. Mazkur fe’l ko‘pincha mavhum otlar bilan birikadi va ko‘pincha bu otlarning ma’no ko’lami nisbatan keng bo’ladi. Masalan: 维护国家主权 [wéihù guójiā zhǔquán] - mamlakat suverenitetini himoya qilmoq, 维护世界和平 [wéihù shìjiè hépíng] – dunyoviy tinchlikni asramoq kabi.

变 (biàn)/变化 (biànhuà) – o‘zgarmoq³⁶

Ikkala fe’l ham muayyan vaziyatning boshlang‘ich holatidan boshqa holatga o‘tishini bildiradi. Ularning farqli xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

变 dan so‘ng ko‘pincha o‘zgargan natijani bildiruvchi to‘liqllovchi ishlatiladi. Masalan: 天气变暖了。[Tiānqì biàn nuǎnhuole.] - Havo ilidi. 城市变得越来越漂亮了。[Chéngshì biàn de yuè lái yuè piàoliang.] – Shahar tobora o‘zgarib go‘zallashib bormoqda. 变 fe’li natijaviy to’ldiruvchi bilan qo’llanmagan hollarda uni 变化 bilan almashtirib ishlatga bo’ladi. Masalan: 社会在变/变化，我们的思想也要跟着变/变化。[Shèhuì zài biàn/biànhuà, wǒmen de sīxiǎng yě yào gēnzhe biàn/biànhuà.] – Jamiyat o‘zgarmoqda, bizning ongimiz ham mos ravishda o‘zgarishga yuz tutmoqda.

³⁶牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，17 页

变, shuningdek, to‘ldiruvchi bilan ham qo‘llaniladi, bunday holda barcha narsa-predmetga tegishli xossa va holatlarning o‘zgarishi anglashiladi. Masalan: 这东西放在阳光下就变色。[Zhè dōngxi fàng zài yángguāng xià jiù biànsè.] - Bu narsa quyosh nuri tushadigan joyga qo‘yilsa darrov rangi o‘zgaradi. 这鞋穿了多年也不变形。[Zhè xié chuānle duōnián yě bù biànxíng.] – Bu oyoq kiyimni necha yil kiyilsa ham shaklini o‘zgartirmaydi. 变化 esa o‘zgarish jarayonini yoki uning natijasini ta’kidlab keladi. Masalan: 气候的变化对人们的生活影响很大。[Qìhòu de biànhuà duì rénmen de shēnghuó yǐngxiǎng hěn dà] – Iqlim o‘zgarishining insonlar hayotiga ta’siri kattadir. 变化 dan so‘ng, odatda, vositasiz to‘ldiruvchi ishlatilmaydi. Quyidagi so‘z birikmalari tarkibida qo‘llaniladi: 发生变化 [fāshēng biànhuà] - o‘zgarish sodir bo‘lmoq, 起变化 [qǐ biànhuà] - o‘zgarmoq, 有变化 [yǒu biànhuà] - o‘zgarmoq, 随……而变化 [suí……ér biànhuà.] – ... tufayli o‘zgarmoq.

变化, shuningdek, ot so‘z turkumiga ham xosdir: 这真是个可喜的变化。[Zhè zhēnshi gè kěxǐ de biànhuà] – Bu haqiqatda quvonchli o‘zgarishdir. Biroq 变 bunday xususiyatga ega emas.

表达 (biǎodá)/表示 (biǎoshì) – namoyish etmoq, ifodalamoq³⁷

Ikkala fe‘l ham boshqalarga ma’lum etish uchun muayyan mazmun-mohiyatni namoyish etmoq, ifodalamoq ma’nosini anglatadi. Ularning farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

表达 ko‘pincha shaxsning o‘z tuyg‘ularini og‘zaki yoki yozma nutq orqali ifodalaganda qo‘llaniladi. To‘ldiruvchi sifatida ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ishtirok etadi. Masalan: 他还不能用汉语表达自己的意思。[Tā hái bùnéng yòng hànyǔ biǎodá zìjǐ de yìsi.] - U hali xitoy tili yordamida o‘z fikrini bayon etolmaydi. 经过锻炼, 口头表达能力提高了。[Jīngguò duànliàn, kǒutóu biǎodá nénglì]

³⁷牟淑媛, 王硕 “语近义词学习手册” - 北京: 北京大学出版社, 2004, 20 页

tígāole.] - Mashqlar natijasida og‘zaki ifoda etish qobiliyati yuksaldi. 他的意思表达得很清楚。[Tā de yìsi biǎodá de hěn qīngchu.] – U o‘z fikrini juda aniq bayon etdi. 表示 esa shaxsning his-tuyg‘ulari nutq orqali ifodalash bilan birga, xatti-harakat yoki munosabatlarning turli xil ko‘rinishlari orqali bilan ifodalanganda qo‘llaniladi. To‘ldiruvchi sifatida ot, fe‘l, shuningdek, fe‘lli so‘z birikmalari ishlatiladi. Masalan: 她用行动表达了自己的意见。[Tā yòng xíngdòng biǎodále zìjǐ de yìjiàn.] - U xatti-harakatlar orqali o‘z fikrini namoyish qildi. 对这种说法，我表达怀疑。[Duì zhè zhǒng shuōfǎ, wǒ biǎodá huáiyí.] – Bu dalilga nisbatan menda shubha uyg‘onmoqda.

Bundan tashqari 表示 narsa-hodisalarning o‘zida aks ettirgan ma’nosini ham anglatishi mumkin. Masalan: 摇头就表示不同意。[Yáotóu jiù biǎoshì bù tóngyì] – Bosh chayqash norozilikni anglatadi. 表达 esa bunday xususiyatga ega emas.

表扬 (biǎoyáng)/奖励 (jiǎnglì) - maqtamoq³⁸

Ikkala fe‘l ham yaxshi odamlar yoki yaxshi ishlarga nisbatan maqtov bildirishni anglatadi. 表扬 yaxshi faoliyatga nisbatan og‘zaki yoki yozma maqtov bildirishga nisbatan ishlatiladi, ko‘pincha moddiy rag‘batlantirish bo‘lmagan hollarda foydalaniladi. Aksincha, 奖励 esa yaxshi ishlarni bajargan odamlarni mukofot yoki pul mukofoti bilan taqdirlaganda ishlatiladi, ishlatilishi va ma’nosiga ko‘ra 表扬 ga nisbatan rasmiy bo‘yoqdorlikka ega. Masalan: 女儿从幼儿园回来后，告诉我：“妈妈，今天老师表扬我了！说我是好孩子。”[Nǚ’ér cóng yòu’èryuán huílái hòu, gàosu wǒ: “Māmā, jīntiān lǎoshī biǎoyáng wǒle! Shuō wǒ shì hǎo hái’zi.”] - Qizaloq bog‘chadan qaytgach, onasiga dedi: “Oyi, bugun bog‘cha opam meni maqtadilar! Meni yaxshi qiz dedilar.” 因为我工作很有成绩，所以公司奖励我一辆汽车。[Yīnwèi wǒ gōngzuò hěn yǒu chéngjī, suǒyǐ gōngsī jiǎnglì

³⁸牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，21 页

wǒ yī liàng qìchē.] – Ishdagi muvaffaqiyatlarim uchun korxonamiz meni mashina bilan mukofotladi.

藏 (cáng)/躲 (duǒ) – yashirmoq, yashirinmoq

Ikkala fe'l ham yashirmoq, yashirinmoq ma'nolarini ifodalaydi. Ulardan keyin to'ldiruvchi kelmagan hollarda, bir-birining o'rnida ishlatish mumkin. Masalan: 她在打墙后面藏/躲着呢。[Tā zài dǎ qiáng hòumiàn cáng/duǒ zhene] – U qurilayotgan devorning orqasiga yashiringan.

Mazkur fe'llardan keyin to'ldiruvchi kelganda esa, 藏 narsa-predmetni yashirmoq ma'nosini ifodalaydi va odatda “把” yoki “被” konstruksiyalari bilan birga ishlatiladi. Masalan: 我把他的书藏在桌子 [Wǒ bǎ tāde shū cáng zài zhuōzi lǐ] - Men uning kitobini stol tagiga yashirdim. 巧克力被妈妈藏起来了。[Qiǎokèlì bèi māmā cáng qǐláile] – Shokoladni onam yashirib qo'yibdilar. 躲 esa obyektidan yashirinmoq ma'nosida qo'llaniladi. Masalan: 到屋子里躲雨吧。[Dào wūzi lǐ duǒ yǔ ba.] - Xonaga kirib yomg'irdan yashirinaylik. 小明这次考试成绩不好，所以总是躲着老师。[Xiǎomíng zhè cì kǎoshì chéngjī bù hǎo, suǒyǐ zǒng shì duǒzhe lǎoshī] – Xiaomingning bu safargi imtihon natijalari yaxshi emas, shuning uchun doim o'qituvchisidan yashirinib yuribdi. 躲 takror holda (reduplikativ) ishlatilishi mumkin, ammo 藏 bunday holda ishlatilmaydi.

操心 (cāoxīn)/担心(dānxīn) – xavotir olmoq³⁹

Ikkala fe'l ham insonning ruhiy holatini ifodalab, xavotir olmoq, bezovta bo'lmoq ma'nolarida qo'llaniladi. 担心 qanqaydir muammo paydo bo'lishidan qo'rqib xavotir olmoq ma'nosida ishlatiladi. Masalan: 出门在外，最担心的就是安全问题。[Chūmén zàiwài, zuì dānxīn de jiùshì ānquán wèntí] – Ko'chaga chiqqach eng bezovta qiladigan narsa bu xavfsizlik masalasidir. 操心 esa biror ish

³⁹牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，36 页

uchun urinmoq, qayg‘urmoq. Masalan: 妈妈为儿子的婚事操心。[Māmā wèi érzi de hūnshì cāoxīn.] - Ona o‘g‘lining turmushi haqida qayg‘uradi. 孩子长大了，也开始为家里的事情操起心来。[Háizi zhǎng dàle, yě kāishǐ wéi jiālǐ de shìqíng cāo qǐ xīn lái.] – Farzand ulg‘aydi, uy yumushlari haqida qayg‘ura boshladi.

担心 fe’li 很 ravishi bilan birika oladi, lekin 操心 bu ravish bilan birga ishlatilmaydi.

产生 (chǎnshēng)/发生 (fāshēng) – sodir bo‘lmoq⁴⁰

Ikkala fe’l ham paydo bo‘lmoq, sodir bo‘lmoq ma’nolarini anglatadi, ba’zida bir-birining o‘rniga ham ishlatilishi mumkin. Masalan: 产生/发生了错误 [chǎnshēng/fāshēngle cuòwù] - Xatolik sodir bo‘ldi. 产生/发生了偏差。[chǎnshēng/fāshēngle piānchā.] – Noaniqlik sodir bo‘ldi. Ammo, ko‘pincha, bu so‘zlarni almashtirib ishlatib bo‘lmaydi.

产生 ko‘pincha mavjud narsa-hodisalar asosida yangi paydo bo‘lgan narsa-hodisalarga nisbatan qo‘llaniladi, bu narsa-hodisalar ham mavhum, ham aniq otlar bo‘lishi mumkin. Masalan: 这本书产生了很大的影响 [Zhè běn shū chǎnshēngle hěn dà de yǐngxiǎng] – Bu kitob juda katta taassurot qoldirdi. 中国历史上产生了很多有名人物 [Zhōngguó lìshǐ shàng chǎnshēngle hěnduō yǒumíng rénwù] - Xitoy tarixida juda ko‘p mashhur insonlar yetishib chiqqan. 对中国文化产生了很大兴趣 [Dui Zhōngguó wénhuà chǎnshēngle hěndà gǎnxìngqù] - Xitoy madaniyatiga juda katta qiziqish uyg‘ondi. 从 20 名学生中产生三名代表。[Cóng 20 míng xuéshēng zhōng chǎnshēng sān míng dàibiǎo.] - Yigirma nafar talaba ichidan uch nafar vakil tanlandi.

发生 esa ilgari mavjud bo‘lmagan narsa-hodisalarning paydo bo‘lishiga nisbatan qo‘llaniladi, bu narsa-hodisalar ko‘pincha aniq otlar bilan ifodalanadi.

⁴⁰牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，42 页

Masalan: 发生了强烈的地震 [Fāshēngle qiángliè dì dìzhèn] - Kuchli zilzila ro'y berdi. 发生了一起交通事故。[Fāshēngle yīqǐ jiāotōng shìgù] – Yo'l-transport hodisasi (avtohalokat) yuz berdi. Ba'zan esa mavhum otlar ham bo'lishi mumkin: 学校周围发生了很大的变化。[Xuéxiào zhōuwéi fāshēngle hěn dà de biànhuà.] – Maktab atrofida katta o'zgarishlar sodir bo'libdi.

达到 (dádào)/到达 (dàodá) – erishmoq, yetishmoq⁴¹

Ikkala fe'l ham erishmoq yoki yetmoq ma'nolarini ifodalaydi.

达到 ko'pincha mavhum faoliyatga nisbatan qo'llaniladi va quyidagi mavhum otlar bilan ishlatiladi: 理想 [lǐxiǎng] – orzu, 目的 [mùdì] – maqsad, 标准 [biāozhǔn] – me'yor, 阶段 [jiēduàn] – bosqich, 水平 [shuǐpíng] – daraja kabi. Masalan: 大家的认识达到了新水平。[Dàjiā de rènshi dádào le xīn shuǐpíng.] – Barchaning bilimi yangi darajaga yetdi.

到达 esa, ko'pincha, aniq faoliyatga nisbatan qo'llanilib, o'rin-joy otlari bilan birikadi. Masalan: 飞机到达北京的时间是下午八点。[Fēijī dàodá běijīng de shíjiān shì xiàwǔ bā diǎn] – Samolyotning Pekinga yetib borish payti kechki soat 8.

打听 (dǎtīng)/问 (wèn) – so'ramoq

Ikkala fe'l ham boshqalardan bilmoqchi bo'lgan ma'lumotni so'rash ma'nosini ifodalab keladi.

打听 fe'lining ma'nosi odatda ma'lumot yoki axborot ma'nolari bilan cheklanadi, shuningdek, bu axborot so'ralayotgan shaxsning fikri va dunyoqarashiga daxldor bo'lmaydi. Odatda 打听 dan so'ng so'ralayotgan ma'lumotlar qo'llanilmaydi, faqat “一下” birikmasini keltirish yoki mazkur fe'lni takror qo'llashdan keyingina so'rab bilmoqchi bo'lmoqchi ma'lumot keltirilishi

⁴¹牟淑媛, 王硕 “语近义词学习手册” - 北京: 北京大学出版社, 2004, 58 页

mumkin. Masalan 打听一下，去故宫怎么走？[Dǎtīng yīxià, qù gùgōng zěnmē zǒu?] - Aytolmaysizmi, Gugong saroyiga qanday borsa bo‘ladi? 你去打听打听有什么新消息。[Nǐ qù dǎtīng dǎtīng yǒu shé me xīn xiāoxi.] – Borib so‘rab ko‘rchi, nima yangiliklar bor ekan.

问 fe’lining ma’no doirasi ancha keng bo‘lib, u faqat muayyan ma’lumot yoki axborotni anglatibgina qolmay, balki bunday ma’lumot yoki axborot so‘ralayotgan shaxs bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari, 问 biror shaxsning biror narsa-hodisaga nisbatan fikri yoki qarashini ham so‘rashda qo‘llaniladi. 问 dan so‘ng so‘ralayotgan shaxs nomi va so‘ralayotgan ma’lumot keltiriladi. Masalan: 请问，你对这件事怎么看？[Qǐngwèn, nǐ duì zhè jiàn shì zěnmē kàn?] - Aytingchi, bu ishga qanday qaraysiz? 问你一个问题 [Wèn nǐ yīgè wèntí] - Sizdan bir savol so‘ramoqchiman. 我可以问一下你的收入情况吗？[Wǒ kěyǐ wèn yīxià nǐde shōurù qíngkuàng ma?] – Siz daromadlaringiz haqida so‘rasam bo‘ladimi?

打听 odatda 消息 [xiāoxi] - yangilik, 下落 [xiàluò] – turgan joyi, o‘rni, 情况 [qíngkuàng] – holat, vaziyat kabi so‘zlar bilan, 问 esa ko‘pincha 问题 so‘zi bilan birikib keladi.

带 (dài)/戴 (dài) – olib yurmoq⁴²

Ikkala fe’l ham o‘zi bilan olib yurmoq ma’nosini ifodalaydi.

带 biror narsa-predmetni o‘zi bilan olib yurmoq, olib kelmoq, olib bormoq ma’nolarini bildiradi. Masalan: 今天有雨，别忘了带雨衣。[Jīntiān yǒu yǔ, bié wàngle dài yǔyī.] - Bugun yomg‘ir yog‘adi, soyabon olishni unutmang. 他上课总是带着词典。[Tā shàngkè zǒng shì dài zhe cídiǎn] – U darsga doim lug‘atni olib

⁴²牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，64 页

keladi. 带 mavhum otlar bilan ham, aniq otlar bilan birikadi. Masalan: 他带来了朋友的问候。[Tā dài lái le péngyǒu de wènhòu] – U do‘stining xabarini olib kelibdi.

戴 esa kiymoq, taqmoq (boshga, yuzga, qo‘lga, yelkaga, barmoqqa belga, bo‘yinga) ma’nolarini ifodalaydi. Masalan: 戴帽子 [dài màozi] - shapka (telpak) kiymoq, 戴手套 [dàishǒutào] - qo‘lqopkiymoq, 戴眼睛 [dàiyǎnjīng] - ko‘zoynak taqmoq, 戴围巾 [dài wéijīn] – sharf taqmoq, 戴项链 [dài xiàngliàn] - taqinchoq (bo‘yinga) taqmoq, 戴戒指 [dài jièzhǐ] - uzuk taqmoq, 戴领带 [dàilǐngdài] - galstuk taqmoq.

等待 (děngdài)/期待 (qídài) - kutmoq⁴³

Ikkala fe‘l ham “nimadir sodir bo‘lishini yoki kimningdir kelishini kutmoq” ma’nosini ifodalaydi.

期待 ning “umid qilmoq” ma’nosi ham bo‘lib, kimningdir kelishini yoki biror hodisaning sodir bo‘lishini zo‘r ixlos bilan kutishni bildiradi. Masalan: 人民期待着胜利的消息。[Rénmín qídàizhuó shènglì de xiāoxi.] - Xalq g‘alaba haqidagi yangilikni intizorlik bilan kutmoqda. 我们期待着这一天的早日到来。[Wǒmen qídàizhuó zhè yītiān de zǎorì dàolái.] – Men o‘sha kun tezroq kelishiga umid qilaman.

等待 da umid yoki ixlos bilan kutish ma’nolari yo‘q, faqatgina kimningdir kelishini yoki biror hodisaning sodir bo‘lishini anglatmaydi, ya’ni har doim ham等待 bilan xohlayotgan narsani kutish ifodalanmaydi. Masalan: 重病的女孩不想躺在床上等待死亡的到来。[Zhòngbìng de nǚhái bùxiǎng tǎng zài chuángshàng děngdài sǐwáng de dàolái.] – Og‘ir kasal qiz to‘shakda o‘limini kutib yotishni xohlamadi.

发觉 (fājué)/发现 (fāxiàn) - fahmlamoq

⁴³牟淑媛, 王硕 “语近义词学习手册” - 北京: 北京大学出版社, 2004, 70 页

Ikkala fe'l ham yashiringan narsa-hodisani yoki fahmlamoq, payqamoq yoki anglamoq ma'nolarini ifodalaydi. Ba'zan ularni bir-birining o'rnida ishlatish mumkin. Masalan: 我发觉/发现这个人不可靠。[Wǒ fājué/fāxiàn zhège rén bù kěkào] – Men bu odamning ishonchsizligini fahmladim. Ular quyidagi vaziyatlarda farq qiladi:

发觉 ning qo'llanish doirasi nisbatan tor bo'lib, ko'pincha sezgi va his-tuyg'ular bilan bog'liq xatti-harakatlarni bildiradi va ilgari noma'lum bo'lgan narsa-hodisani payqash, fahmlashni ifodalaydi. Masalan: 他发觉自己又长高了。[Tā fājué zìjǐ yòu zhǎng gāole] – U o'zining yana o'sganligini payqadi. 发现 ning esa qo'llanish doirasi kengroq bo'lib, u 发觉 ning vazifasini bajarish bilan birga, shuningdek, tadqiqot yoki izlanishlar natijasida topilmagan narsa-hodisalarni topish, kashf qilish, anglash ma'nolarini ham ifodalaydi. Masalan: 天文学家发现了一颗新的行星。[Tiānwénxué jiā fāxiànle yī kē xīn de xíngxīng.] – Munajjimlar yangi sayyorani topishdi (kashf qilishdi).

发觉 odatda joriy, aniq narsa-hodisalar uchun ishlatiladi. Masalan: 有人在考试时偷看别人的，被老师发觉了。[Yǒurén xiǎng zài kǎoshì shí tōu kàn biérén de, bèi lǎoshī fājuéle] – Bir kishi imtihon paytida boshqa birovdan ko'chirmoqchi bo'lganda, o'qituvchi buni sezib qoldi. 发现 esa joriy va bo'lib o'tgan narsa-hodisalar uchun ham, aniq va mavhum narsa-hodisalar uchun ham ishlatiladi. Masalan: 我发现生活原来是这样美好。[Wǒ fāxiàn shēnghuó yuánlái shì zhèyàng měihǎo.] - Men hayot aslida shunday go'zal ekanligini angladim. 这批海底宝藏是去年发现的。[Zhè pī hǎidǐ bǎozàng shì qùnián fāxiàn de] – Bu dengiz boyliklari o'tgan yili topilgan.

发觉 bilan birikuvchi to'ldiruvchi ko'pincha ot bo'lmagan so'z birikmalaridan iborat bo'ladi. Masalan: 我发觉自己上了他的当。[Wǒ fājué zìjǐ shàngle tā dí dàng] – Men uning tuzog'iga tushganimni his qildim. 发现 esa ot

yoki ot soʻz birikmasidan iborat toʻldiruvchilar bilan birika oladi. Masalan: 发现问题 [fāxiàn wèntí] - muammoga duch kelmoq, 人们过去也曾发现过这种现象。 [Rénmen guòqù yě céng fāxiànguò zhè zhǒng xiànxàng] – Odamlar oldin ham bu hodisaning guvohi boʻlishgan.

发现, shuningdek, ot kategoriyasiga ham boʻlishi mumkin: 重大发现。 [zhòngdà fāxiàn.] – buyuk ixtiro.

反映 (fǎnyìng)/ 反应 (fǎnyìng) – munosabat bildirmoq, javob qaytarmoq⁴⁴

Ikkala soʻz ham feʼl, ham ot sifatida ishlatilishi mumkin va “aks ettirmoq, javob qaytarmoq, fikr bildirmoq” kabi maʼnolarni ifodalaydi. Ammo ularning qoʻllanilishi har xildir.

反应 biror sababga koʻra harakat qilmoq, munosabat bildirmoq va oʻz fikrini ifoda etmoq kabi maʼnolarni anglatadi: 了解一下同学们对这位老师的反应 [Liǎo jiè yīxià tóngxuémen duì zhè wèi lǎoshī de fǎnyìng] - Talabalarning bu oʻqituvchiga boʻlgan munosabatini oʻrganib chiqing. 在群众中有不好的反应。 [Zài qúnzhòng zhōng yǒu bù hǎo de fǎnyìng] – Omma orasida salbiy fikrlar bor. Shuningdek, organizmga boʻlgan taʼsir natijasida oʻzgarish roʻy berishini ham anglatishi mumkin: 吃了这个药, 有过敏反应。 [Chīle zhège yào, yǒu guòmǐn fǎnyìng] – Bu dorini ichgandan soʻng allergiya qoʻzgʻaladi. 反映 biror narsa-hodisani haqqoniy aks ettirmoq maʼnosida qoʻllanadi: 这本小说反映了当代中国的社会生活。 [Zhè běn xiǎoshuō fǎn yìng liǎo dàng dài zhōngguó de shèhuì shēnghuó] – Mazkur roman Xitoy jamiyatining oʻsha davrdagi hayotini aks ettirgan. Shuningdek, biror voqea-hodisa yoki fikr-mulohazani tegishli shaxslar yoki tashkilotlarga xabar qilish maʼnosini ham ifodalaydi: 一定要把这件事向上级反映。 [Yīdìng yào bǎ zhè jiàn shì xiàng shàngjí fǎnyìng] – Bu voqea haqida albatta yuqoridagilarga xabar berish lozim.

⁴⁴牟淑媛, 王硕 “语近义词学习手册” - 北京: 北京大学出版社, 2004, 87 页

反应 o'timsiz fe'l bo'lib, to'ldiruvchilar bilan birikmaydi va reduplikatsiyaga uchramaydi. 反映 esa aksincha o'timli fe'l hisoblanadi, to'ldiruvchilar bilan birikadi va takror holda qo'llanilishi mumkin.

改变 (gǎibiàn)/转变 (zhuǎnbiàn) – o'zgartirmoq, o'zgarmoq⁴⁵

Ikkala so'z ham fe'l, ham ot kategoriyasiga mansub so'zlardir, ular bir holatdan ikkinchi holatga o'zgarib natija hosil bo'lishini anglatadi.

改变 bilvosita, ya'ni tashqi ta'sir orqali o'zgarish sodir bo'lishini va shu o'zgarish natijasini anglatishi mumkin. Masalan: 改革开放以来，中国农村的面貌有了很大的改变。[Gǎigé kāifàng yǐlái, zhōngguó nóngcūn de miànmào yǒule hěn dà de gǎibiàn.] - Ochiq eshiklar va islohotlar siyosati paytidan beri Xitoy qishloq xo'jaligining qiyofasi juda o'zgardi. 我们一定要改变这种状况。[Wǒmen yīdìng yào gǎibiàn zhè zhǒng zhuàngkuàng.] – Biz bu vaziyatni, albatta, o'zgartirishimiz lozim. 改变 mavhum otlar bilan – tarix, taqdir, reja, aloqa, usul, fe'l-atvor kabi, aniq otlar bilan – atrof-muhit, miqdor, rang, tovush kabi – birikadi.

转变 esa bevosita, ya'ni hech qanday ta'sirsiz sodir bo'lgan o'zgarishni anglatadi, odatda bu o'zgarish yanada yaxshiroq bo'lishga yoki yuqori darajani egallashga qaratilgan bo'ladi. Masalan: 经过学习，我的思想有了很大的转变。[Jīngguò xuéxí, wǒ de sīxiǎng yǒule hěndà de zhuǎnbiàn] – O'qish tufayli mening fikrlashimda juda katta o'zgarish sodir bo'ldi. 转变 ko'pincha mavhum otlar bilan birikadi, o'y-fikr, dunyoqarash, nuqtai nazar, harakat tarzi kabi. Mazkur fe'l odatda rasmiy matnlarda qo'llaniladi.

改进 (gǎijìn)/改善 (gǎishàn) – yaxshilanmoq, rivojlanmoq⁴⁶

Ikkala fe'l ham boshlang'ich holatdan yanada yaxshiroq holatga o'zgarish ma'nosini anglatadi.

⁴⁵ O'sha manba, 92 b.

⁴⁶ 牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，93 页

改进 fe'li “改” (o'zgarmoq) va “进” (rivojlanmoq) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, eski holatni o'zgartirish va rivojlantirish ma'nosini anglatadi. 改进 aniq va mavhum otlar bilan birikishi mumkin, ish, usul, texnika, asbob-uskuna kabi: 有关部门改进了工作作风。[Yǒuguān bùmén gǎijìnle gōngzuò zuòfēng.] - Tegishli tashkilotlar tomonidan ish uslubi rivojlantirildi. 改进教育制度。[gǎijìn jiàoyù zhìdù] – ta'lim tizimini rivojlantirmoq.

改善 fe'li “改” (o'zgarmoq) va “善” (yaxshi) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, yomon yoki unchalik yaxshi bo'lmagan holatning o'zgarishi va qoniqarli holatga aylanishini anglatadi. 改善 odatda mavhum otlar bilan birikadi, muomala, aloqa, atrof-muhit, hayot, shart-sharoit kabi. Masalan: 改善人民生活 [gǎishàn rénmin shēnghuó] - xalq hayotini yaxshilamoq, 改善两国关系 [gǎishàn liǎng guó guānxì] – ikki davlat aloqalarini yaxshilamoq.

感动 (gǎndòng)/激动 (jīdòng) – ta'sirlanmoq⁴⁷

Ikkala fe'l ham tashqi ta'sir natijasida ruhiy holatning o'zgarishini anglatadi. Ba'zan ularni almashtirib ishlatish mumkin, ammo ular bildiradigan ma'nolar har doim ham bir xil emasdir. 我感动/激动得流下了眼泪。[Wǒ gǎndòng/jīdòng de liúxiàle yǎnlèi.] - Men ta'sirlanganimdan ko'z yosh to'kdim. 她的话让我非常感动/激动。[Tā dehuà ràng wǒ fēicháng gǎndòng/jīdòng.] – Uning gaplari meni juda ta'sirlantirdi.

感动 tashqi ta'sirlar natijasida maftun bo'lish va yoqtirish ma'nolarini ifodalaydi. Mazkur fe'l odatda yaxshi odamlar va ijobiy ish-harakatlarga nisbatan qo'llaniladi. 感动 orqali ifodalangan maftunlik albatta ifoda qilinishi shart emas, u ichki his-tuyg'ularni ham bildirishi mumkin. 我们的态度终于感动了他。[Wǒmen de tàidù zhōngyú gǎndòngle tā.] – Mening muomalam oxir-oqibat uni ta'sirlantirdi.

⁴⁷牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，95 页

激动 tashqi ta'sir natijasida vujudga kelgan kuchli his-tuyg'ularni bildiradi. 激动 bo'lishga sabab bo'lib xursandchilik yoki quvonchli voqea, shuningdek, norozilikka sabab bo'luvchi voqealar ham xizmat qilishi mumkin. Masalan: 这是一首激动人心的歌。[Zhè shì yī shǒu jīdòng rénxīn de gē.] - Bu bir maftunkor qo'shiq. 掩饰不住内心的激动。[Yǎnshì bù zhù nèixīn de jīdòng.] – O'z hayajonin yashira olmadi.

感动 majhul nisbatda qo'llanilishi mumkin. 我被感动得哭了。[Wǒ bèi gǎndòng de kūle.] – Men ta'sirlanib yig'ladim. 激动 esa bunday xususiyatga ega emas.

感激 (gǎnjī)/感谢 (gǎnxiè) – minnatdorchilik bildirmoq⁴⁸

Ikkala fe'l ham boshqalarning yaxshiligiga minnatdorchilik bildirish ma'nosini ifodalaydi.

感激 boshqa birov yordam berganda yoki qo'llab-quvvatlaganda bildiriladigan minnatdorchilikka nisbatan qo'llaniladi. Bu kuchli ruhiy faoliyat hisoblanadi, ammo u qadar ifodali emas, mazkur fe'l ko'pincha yozma nutqda ishlatiladi. Masalan: 面对救命恩人，女孩感激得说不出话来。[Miàn duì jiùmìng ēnrén, nǚhái gǎnjī de shuō bu chū huà lái.] – Qutqaruvchiga qaragancha qiz minnatdorligidan bir so'z deya olmadi.

感谢 esa kuchsizroq ruhiy faoliyat bo'lib, bunday minnatdorchilik boshqa birovning yordamiga og'zaki, harakatlar yordamida va moddiy minnatdorchilik bildirganda qo'llaniladi. Mazkur fe'l ham og'zaki, ham yozma nutqda ishlatilishi mumkin. Masalan: 我能有今天的成就，应该感谢我的父母。[Wǒ néng yǒu jīntiān de chéngjī, yīnggāi gǎnxiè wǒ de fùmǔ.] - Men bugungi muvaffaqiyatim uchun ota-onamdan minnatdor bo'lishim kerak. 为这件事，我多次感谢过他。[Wèi zhè jiàn shì, wǒ duō cì gǎnxièguò tā.] – Bu ish uchun unga ko'p bora rahmat aytganman. Og'zaki nutqda to'ldiruvchisiz ishlatish ham mumkin. Masalan: 感谢

⁴⁸牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，96 页

了 [gǎnxiè] - Rahmat (minnatdorman), 感谢，感谢！[Gǎnxiè, gǎnxiè!] – Rahmat, rahmat!

感觉 (gǎnjué)/觉得 (juéde) – his qilmoq⁴⁹

Ikkala fe'l ham tashqi ta'sir natijasida ruhiy holatning o'zgarishini anglatadi. Ba'zan ularni almashtirib ishlatish mumkin. Masalan: 我感觉/觉得有点儿冷。[Wǒ gǎnjué/juéde yǒudiǎn er lěng] – Men biroz sovuq qotyapman. Ammo ular bir qancha farqli tomonlarga ham egadir.

感觉, shuningdek, ot kategoriyasiga mansubdir. Bevosita muloqot yoki shaxsiy tajriba natijasida vujudga kelgan ruhiy holatni bildiradi. Masalan: 女教师总给人亲切的感觉。[Nǚ jiàoshī zǒng jǐ rén qīnqiè de gǎnjué.] – Ayol o'qituvchilar doim iliq tuyg'ular baxsh etadi. 觉得 esa faqat fe'l kategoriyasiga mansub so'z bo'lib, muayyan his-tuyg'ularning paydo bo'lishini ifodalaydi. Masalan: 早上起得太早，现在觉得有困难。[Zǎoshang qǐ de tài zǎo, xiànzài juéde yǒu kùnnán.] – Ertalab juda erta uyg'ongan uchun hozir o'zimni og'ir his qilyapman.

感觉 fe'lidan so'ng ot to'ldiruvchi ishlatilmaydi, ammo to'liqllovchi sifatida to' kelishi mumkin. Masalan: 我感觉到今天屋子里的气氛和往常不同。[Wǒ gǎnjué dào jīntiān wūzi lǐ de qìfēn hé wǎngcháng bùtóng] – Bugun uydagi muhit har doimgidan boshqacha.

感觉 va 觉得 fe'llarining ikkalasi ham, 认为 ma'nosida ham qo'llanilishi mumkin. Masalan: 我感觉/觉得这人不错。[Wǒ gǎnjué/juéde zhè rén bùcuò.] – Menimcha, bu odam yomon emas. 觉得 ko'proq og'zaki nutqda ishlatilishi bilan farqlanadi.

搞 (gǎo)/弄 (nòng) – qilmoq, bajarmoq⁵⁰

⁴⁹ O'sha manba, 97 b.

⁵⁰ 牟淑媛, 王硕 “语近义词学习手册” - 北京: 北京大学出版社, 2004, 103 页

Ikkala fe'l ham qilmoq, bajarmoq ma'nolarini ifodalaydi. Muayyan fe'llarning o'rniga qo'llanilganda almashtirib ishlatilishi mumkin. Masalan: 尽快把问题搞/弄清楚。[Jǐnkuài bǎ wèntí gǎo/nòng qīngchu.] – Tezda muammoni oydinlashtiring. Ammo 搞 va 弄 dan so'ng keluvchi to'liqllovchilar har xil bo'lganida, ular bildiradigan ma'nolar ham turlicha bo'ladi. Masalan: 搞好关系 [gǎo hǎo guānxì] - yaxshi aloqalarni o'rnatmoq, 搞出了一项新科研成果 [Gǎo chūle yī xiàng xīn kēyán chéngguǒ] - Yangi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. 他帮我把自行车弄好了。[Tā bāng wǒ bǎ zìxíngchē nòng hǎole.] – U menga velosipedni tuzatishga yordam berdi.

搞, shuningdek, shug'ullanmoq, o'tkazmoq, tashkillashtirmoq ma'nosini ham bildiradi, bunda bir nechta turg'un birikmalar tarkibida keladi: 搞创作 [gǎo chuàngzuò] - ijod bilan shug'ullanmoq, 搞工业 [gǎo gōngyè] - sanoat bilan shug'ullanmoq, 搞建设 [gǎo jiànshè] - qurilish bilan shug'ullanmoq, 搞关系 [gǎo guānxì] - aloqalar o'rnatmoq, 搞对象 [gǎo duìxiàng] - sherik qidirmoq, 搞活动 [gǎo huódòng] - reklama aksiyasini o'tkazmoq, 搞卫生 [gǎo wèishēng] - sanitariya tadbirlarini o'tkazmoq kabi.

弄 esa qo'l bilan qimirlatmoq, harakatlantirmoq ma'nolarini ham bildiradi. 用手弄了弄头发 [yòng shǒu nòngle nòng tóufǎ] - sochni qo'l bilan o'ynamoq, 快点儿弄饭吃! [Kuài diǎn er nòng fàn chī!] - Tezroq ovqatingni yeb ol! Bundan tashqari 弄 ba'zi bir turg'un birikmalar tarkibida ham uchraydi: 弄假成真 [nòngjiǎchéngzhēn] - hazil chinga aylandi, 搬弄是非 [bānnòngshìfēi] - qo'shib-chatib yolg'on tarqatmoq, 弄虚作假 [nòngxūzuòjiǎ] – turli usullarni (hiylanayrang) qo'llamoq kabi.

告诉 (gàosu)/说 (shuō) – aytmoq, xabar qilmoq⁵¹

⁵¹牟淑媛, 王硕 “语近义词学习手册” - 北京: 北京大学出版社, 2004, 104 页

Ikkala fe'l ham o'z fikrini boshqalarga bildirish maqsadida, uni nutq orqali ifoda etishni bildiradi. Ular quyidagi farqlarga egadir:

告诉 dan so'ng shaxsni ifodalovchi to'ldiruvchi keladi, barcha aytilgan narsa shu shaxs ortida kechadi. Masalan: 她告诉我一件事。[Tā gàosu wǒ yī jiàn shì.] – U menga bir voqea haqida xabar berdi. 说 dan so'ng esa shaxsni emas, biror ma'lumotni ifodalovchi to'ldiruvchi keladi. Masalan: 他说了几句笑话。[Tā shuōle jǐ jù xiàohuà.] – U bir nechta latifa aytib berdi. Agar 说 albatta suhbatdoshga qaratilgan nutqda ishlatiladigan bo'lsa, 对 [duì] yoki 跟 [gēn] ravishlarini qo'shish lozimdir. Masalan: 我对/跟她说了几句笑话。[Wǒ duì/gēn tā shuōle jǐ jù xiàohuà.] – Men unga bir nechta latifa aytib berdim.

说 koyimoq, urushmoq ma'nolarini ham bildiradi, bu holatda undan keyin shaxs to'ldiruvchisi kelishi mumkin. Masalan: 他把你的东西弄坏了, 你说他了吗? [Tā bǎ nǐde dōngxi nòng huàile, nǐ shuō tāle ma?] – U sening narsangni sindirdi, uni koyidingmi?

鼓励 (gǔlì)/鼓舞 (gǔwǔ) – rag'batlantirmoq, qo'llab-quvvatlamoq⁵²

Ikkala so'z ham fe'l, ham ot kategoriyasiga mansub bo'lib, rag'batlantirmoq, qo'llab-quvvatlamoq, odamlarni tirishqoqlik bilan ishlashda davom etishga chaqirmoq ma'nolarini anglatadi.

鼓励 muayyan maqsadda bir tomon ikkinchi tomonni rag'batlantirishi, uning muayyan mashg'ulot bilan shug'ullanishini xohlashini anglatadi. Salbiy va ijobiy ish-harakatlarga nisbatan birdek qo'llaniladi. Masalan: 对这样的好人好事, 我们应该给以鼓励。[Duì zhèyàng de hǎorén hǎoshì, wǒmen yīnggāi gěi yǐ gǔlì.] – Bunday yaxshi ish va odamlarni biz qo'llab-quvvatlashimiz kerak. 我们不能鼓励这种不好的行为。[Wǒmen bùnéng gǔlì zhè zhǒng bù hǎo de xíngwéi.] – Biz bu nojo'ya harakatni rag'batlantira olmaymiz.

⁵²牟淑媛, 王硕 “语近义词学习手册” - 北京: 北京大学出版社, 2004, 110 页

鼓舞 biror bir ijobiy tashqi ta'sir tufayli rag'batlantirilmoq, ilhomlanmoq ma'nosini anglatadi, ushbu ta'sir, albatta, aniq ot bo'lishi shart emas, shuningdek, bir tomonning ikkinchi tomoniga rag'bati bo'lishi shart emas, ammo albatta ijobiy ta'sir bo'lishi kerak. Masalan: 这消息太鼓舞人心了。 [Zhè xiāoxi tài gǔwǔ rénxīnle] – Bu yangilik insonni ilhomlantirdi. 鼓舞 bilan ega sifatida 消息 [xiāoxi] – yangilik, 榜样 [bǎngyàng] – namuna, 精神 [jīngshén] – ko'tarinki ruh, 艺术 [yìshù] – san'at kabi mavhum otlar birikishi mumkin.

2.2. “H” - “Z” ALFAVIT KETMA-KETLIGIDAGI FE’LLAR TASNIFI

害怕 (hàipà)/怕 (pà)/恐怕 (kǒngpà) – qo‘rqmoq⁵³

Uchala fe’l ham qiyinchilik yoki dahshatga duch kelganda ko‘ngilda notinchlik yoki asabiylashmoq, ya’ni qo‘rqmoq ma’nosini ifodalaydi. Ba’zan bir-birining o‘rniga ishlatilsa bo‘ladi: 他从来就不害怕/怕困难。[Tā cónglái jiù bù hàipà pà kùnnán.] – U hech qachon qiyinchiliklardan qo‘rqmagan. Ammo ba’zi turg‘un birikmalarda faqat 怕 fe’lini ishlatish mumkin: 天不怕，地不怕。[tiān bùpà, dì bùpà.] - yer-u osmonlardan qo‘rmaslik. 前怕狼，后怕虎。[qián pà láng, hòupà hǔ.] – qo‘rquv bilan yashamoq.

怕, shuningdek, xavotir olmoq ma’nosini ham bildiradi: 怕他太累了，让他早点儿休息。[Pà tā tài lèile, ràng tā zǎodiǎnr xiūxi.] – U charchagan deb qo‘rqaman, unga ertaroq dam olishga ruxsat bering. 害怕 va 恐怕 esa bunday ma’noga ega emas.

怕 ravish kategoriyasiga ham mansubdir, mumkinlik yoki taxminni bildiradi. Bunda ma’no va qo‘llanish jihatdan 恐怕 bilan tenglashadi, ularni bir-birining o‘rniga ishlatish mumkin. Masalan: 孩子这么没精神，怕/恐怕是生病了吧。[Háizi zhème méi jīngshén, pà/hàipà shì shēngbingle ba.] – Bolaning umuman kayfiyati yo‘q, kasal bo‘lib qolgandir.

怕 va 害怕 dan so‘ng to‘liqllovchi kelishi mumkin: 怕极了 [pà jíle] - juda qo‘rqmoq, 害怕得很 [hàipà de hěn.] – juda qo‘rqinchli. 恐怕 bunday ishlatilmaydi.

纪念 (jìniàn)/留念 (liúniàn) – eslamoq, xotirlamoq⁵⁴

Ikkala fe’l ham shaxs yoki voqealarga nisbatan eslash, xotirlash ma’nosida qo‘llaniladi. Ular quyidagi farqli tomonlarga egadir:

纪念 ham fe’l, ham ot kategoriyasiga mansubdir, 纪念 ning obykti quvonchli yoki qayg‘uli voqea bo‘lishi mumkin: 这块手表是我们的结婚纪念物。

⁵³ 牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，118 页

⁵⁴ O‘sha manba, 130 b.

[Zhè kuài shǒubiǎo shì wǒmen de jiéhūn jìniàn wù.] - Bu soat bizning to'yimizdan yodgorlik. 开会纪念死去的人。[Kāihuì jìniàn sǐqù de rén.] – Majlisda vafot etgan kishi xotirlandi. 留念 odatda judolik oldidan rasmga tushirish, dastxat olish kabi usulda yoki esdalik sovg'a berish usulida yodda saqlash ma'nosiga ishora qiladi, asosan, quvonchli xotiralarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan: 要回国了，送你一件小礼物留念。[Yào huíguóle, sòng nǐ yī jiàn xiǎo lǐwù liúniàn.] – Vatanga qaytishim kerak, senga esdalik uchun kichkina sovg'a bermoqchiman.

纪念 gapda ko'pincha aniqlovchi, kesim bo'lib keladi, to'ldiruvchi bilan ham birikishi mumkin. Masalan: 制作一个纪念册，纪念我们在一起的日子。[Zhìzuò yīgè jìniàncè, jìniàn wǒmen zài yīqǐ de rìzi.] – Bir albom tayyorlaylik, birga o'tkazgan paytlarimizni eslab yuramiz. 留念 esa to'ldiruvchi bilan birikmaydi: 全班同学一起合影留念。[Quán bān tóngxué yīqǐ héyǐng liúniàn.] – Barcha kursdoshlar esdalik uchun birgalikda suratga tushishdi.

纪念 fe'lini takror holda qo'llash mumkin: 明天是我们结婚一周年的日子，我们好好纪纪念念吧。[Míngtiān shì wǒmen jiéhūn yī zhōunián de rìzi, wǒmen hǎohǎo jìjìniànniàn ba.] – Ertaga to'yimizning bir yilligi, ajoyib tarzda nishonlaymiz. 留念 ni takror holda qo'llab bo'lmaydi.

交换 (jiāohuàn)/交流 (jiāoliú) – alishmoq, almashtirmoq⁵⁵

Ikkala fe'l ham “ikkala tomonning o'z narsasini sherigiga bermoq” ma'nosini bildiradi, ba'zan bir-birining o'rnida ishlatilishi mumkin. Masalan: 和各个学校交换/交流自己的教材。[Hé gègè xuéxiào jiāohuàn/jiāoliú zìjǐ de jiàocái.] – Barcha o'quv dargohlari bilan o'zining o'quv qo'llanmalarini almashmoq. Ular o'rtasidagi farq quyidagilarda namoyon bo'ladi:

交换 fe'li 意见 [yìjiàn] – fikr, 看法 [kànfǎ] – nuqtai nazar, 情况 [qíngkuàng] – holat, vaziyat kabi mavhum otlar va 纪念品 [jìniànpǐn] – esdalik sovg'asi, 书籍

⁵⁵牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册” - 北京：北京大学出版社，2004，136 页

[shūxiāng] – xatlar qutisi kabi aniq otlar, shuningdek, shaxsni bildiruvchi otlar bilan ham birikishi mumkin. Qo‘llanilish doirasi nisbatan kengroqdir.

交流, asosan, 思想 [sīxiǎng] – g‘oya, 文化 [wénhuà] – madaniyat, 经验 [jīngyàn] – tajriba, 感情 [gǎnqíng] – his-tuyg‘u kabi mavhum otlar bilan birikadi. 交流 fe’li, shuningdek, ot kategoriyasiga ham mansubdir, masalan, 物资交流 [wùzī jiāoliú] – tovar almashinuvi, 国际交流 [guójì jiāoliú] – xalqaro ayirboshlash kabi. Qo‘llanish doirasi nisbatan torroqdir.

解释 (jiěshì)/说明 (shuōmíng) – tushuntirmoq⁵⁶

